

**O'ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH
AGENTLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVYER
SITETI**

O'zbekiston tarixi kafedrası

**O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN MUSTAQIL ISH
VAZIFALARI
(talabalar uchun)**

TOSHKENT 2007

Ushbu uslubiy qo'llanma TATU kunduzgi va sirtqi bakalavriyat bosqichining barcha yo'nalishlari uchun O'zbekiston tarixi fani bo'yicha mustaqil ish jarayonida foydalanishga tavsiya etiladi. O'zbekiston tarixi kafedrası Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi taqdim etgan dastur mavzulari asosida ishlab chiqilgan. «O'zbekiston tarixi fanidan mustaqil ish vazifalari» uslubiy qo'llanmasi O'zbekiston tarixi kafyer asi katta o'qituvchilari G.V.Yusupova, F.N.Shirnova, D.S.Ziyaeva, X.S.Salamullaevlar tomonidan tayyorlandi.

I.KARIMOVNING «TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO'Q» ASARI

REJA:

1. Tarixiy xotira tushunchasi.
2. Asarda ko'tarilgan dolzarb masalalar.
3. Asarning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni.

Har bir xalq uchun o'z qiyofasini aniq-ravshan ko'rish imkoniyatini byer adigan ko'zgu o'zining Tarixidir. Shu bilan birga tarix-bu millat ko'zgusi xalq ma'naviyatining asosidir. U insoniyat va uning mahsuli bo'lgan sivilizasiya rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi taraqqiyoti jarayonini o'rganuvchi fandir.

1998 yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bir guruh tarixchi olimlar va ijodiy ziyolilar vakillari bilan uchrashib, Vatanimizning mustaqillikka erishgani tufayli tarix fani oldida vujudga kelgan eng dolzarb vazifalarni davlat va millat manfaatlari nuqtai nazaridan ko'rsatib byer di. Uchrashuvda o'rtaga qo'yilgan fikr-mulohazalar «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» deb nomlangan asarda o'z aksini topdi va u O'zbekiston tarixi fani taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi.

Prezident bu uchrashuvda avvalo shuni ta'kidladiki, mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, Shahar, xullaski, o'z Vatani tarixini bilishga qiziqadi.

Mustaqillik tufayli tarixiy haqiqatni bilishga, o'zligimizni tyer an anglashga intilishimiz tabiiy xoldir.

Endilikda-mustaqil davlatchiligimiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz kyer ak, deydi yurtboshimiz. Chunki o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi.

Shu munosabat bilan Islom Karimov e'tiborini o'tmishimizni chuqur va keng o'rganish, uni to'laqonli xolis yoritish kabi bir qator muhim, dolzarb masalalarga qaratdi. Tariximizni ilmiy asosda yoritishda

bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkinligini ta'kidladi.

Tarixiy ildizini izlagan inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarga javob izlaydi, uni o'rganishga harakat qiladi. «Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi», -deydi I.Karimov.

Demak, yurtimiz fuqarolarida tarixiy xotirani tyer anlashtirish, tarixiy ongni shakllantirish muhim vazifadir.

Shu bois I.Karimov xolis tariximizni tiklashda-avvalo o'lkamizda miloddan oldingi davrlarda aholining o'troqlashuvini, ilk davlatlarning vujudga kelish omillarini, mashhur «Avesto» va boshqa manbalardan, arxeologlarning yangi izlanishlaridan to'g'ri foydalanishimiz lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, «Avesto»ning bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganligidan guvohlik byer uvchi xujjatlariga e'tibor qaratadi.

Asarda ko'tarilgan dolzarb masalalardan biri O'rta Osiyo hududida davlatchilikning paydo bo'lishi muammosidir. Bu masalasini o'rganayotgan, tadqiqot o'tkazayotgan Arxeologiya, Tarix, Sharqshunoslik va boshqa institutlar mutaxassislari faoliyati atroflicha yoritilishi asosiy vazifa qilib qo'yildi. Davlat, davlatchilik bugungi kunda siyosiy masala bo'lib turibdi. Shu bois o'zbek tarixchilari, olimlari davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazaridan asoslangan tarixini yaratishi, uni kelajak avlodga etkazishi lozim. Xalqimizning davlatchiligi qaysi asrdan paydo bo'ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi? kabi savollariga javob topish zarur.

Davlatchiligimiz boy tarixini yoritish-uni dastlabki shakllangan birlashma uyushmalardan tortib rosmiyan davlatlarning-Katta Xorazm, Qadimiy Baqtriya, So'g'diyonaning tashkil topishi, boshqaruv tizimining takomillashuvi va rivojlanishini ko'rsatib byer ishdur. Keyingi asrlarda, xususan, Amir Temur davrida davlatchiligimiz yangi bosqichga ko'tarilganligini, mumtoz asar- «Temur tuzuklari»ning ulkan ahamiyatini chuqur anglash va yorqin misollarda yoritib byer ish lozim. Asarda Amir Temurning «Kuch - adolatda» shiori mazmunini idrok

etish zarurligi aytiladi. I.Karimov Sohibqironning bu shiordagi fikrini rivojlantirib, «Kuch - bilim va tafakkurda» -degan g'oyani o'rta qo'yadi.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida o'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) masalasiga alohida to'xtab o'tilgan. «Biz o'zimizni millat deb bilar ekanmiz, o'zbekchiligimiz haqida aniq tushunchaga ega bo'lishimiz kyer ak», -deb ta'kidlaydi yurtboshimiz. SHu bilan birga millatimiz ma'naviy qiyofasiga e'tiborni tortib, qat'iyat bilan biz Byer uniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga vorismiz, deydi. O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon. U yer ni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa ham, daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom ma'noda bunyodkordir. Unga bironing yer i kyer ak emas. Mabodo qo'lga qurol olguday bo'lsa, faqat o'zini himoya qilish uchungina oladi, -deb ta'kidlaydi Islom Karimov. Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz,-deydi yurtboshimiz, - qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan. Xalqimizda «iligi to'q, baquvvat» degan tushuncha bejiz paydo bo'lmagan.

Odatda, xalqning tarixi uning nomidan ilgari yuradi. Masalan, dunyoning bir qancha xalqlari-inglizlar, fransuzlar, ruslar va boshqalar avval turli qabila nomlarida bo'lgan va asrlar osha (xususan milodiy VI-XIII asrlarda) hozirgi nomlarini olganlar. Turkiylarning bosh bo'g'ini bo'lgan o'zbeklar uch ming yillik tarixga ega bo'lsalar ham, hozirgi nomi XI asrda tilga olinadi va millat sifatida XVI asrdan boshlab shunday ataladigan bo'ldi. SHuning uchun Prezidentimiz: «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz», -deb uqtiradi.

Yurtimizga Aleksandr Makedonskiy, Qutayba, Chingizxon va boshqalar bostirib kirib, bu yer dagi siyosiy hokimiyatni qo'lga olgan. Biroq hududimizda asrlar davomida yashab kelayotgan mahalliy aholini, uning ko'p ming yillik madaniyatini yo'q qila olmaganlar. CHunki o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmaydi.

Islom Karimov tarixchi olimlarga murojaat qilib, ularni haqqoniy tariximizni tiklashga, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishga chaqiradi.

Uchrashuvdan bir oy o'tgach, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida hukumatning maxsus qarori qabul qilindi. Unda o'zbek xalqi va uning davlatchiligi haqqoniy tarixini o'rganish, mamlakatimiz va chet ellarda mavjud tarixiy

manbalar tahlili asosida olingan ilmiy natijalarning jahon miqyosidagi e'tirofiga erishish, ularga tayangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, turli adabiyotlar yaratish va mazkur bilimlarni keng yoyish hamda tarix sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan edi.

Bu qarorni amalga oshirishda Tarix instituti jamoasi, shuningdek oliy o'quv yurtlarining tarix fani o'qituvchilari birmuncha muvaffaqiyatlarga erishdilar. Tarixiy tadqiqotlarni rivojlantirish konsepsiyasi va O'zbekiston davlatchiligi tarixini hamda o'zbek xalqi etnogenezini o'rganish dasturi ishlab chiqildi. Akademik YAhyo G'ulomov nomidagi «O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish» ilmiy seminari faoliyat ko'rsatmoqda. «O'zbek davlatchiligi tarixi», «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti», «O'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni» kabi monografiyalar va bir qancha darsliklar chop etildi va yangilari ustida ish olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda, o'qitish jarayoni anchagina takomillashdi. Univyer sitet va institutlarni bitiruvchi talabalar O'zbekiston tarixi bo'yicha davlat attestatsiyasidan o'tmoqdalar. Tariximizga oid maqolalar gazeta va jurnal sahifalarida, radio va televidenie eshittirish va ko'rsatuvlar dasturidan keng o'rin olib kelmoqda.

I.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari yosh avlodni tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Chunki O'zbekiston rahbariyati komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qildi.

Komil inson, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulqi-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilardir. Bunday odamlarni har xil oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam hisoblanadi. Bunday insonni esa, yoshligidan tarbiyalab, to'g'ri yo'lga solib voyaga etkazish kerak. «Muhimi, yoshlarning orasiga kirish ularning ichidan qobiliyatli, fidoyilarini topish, ularning yuragini yondirish karak», -deb ta'kidlaydi I.Karimov. Bu asarda o'sib kelayotgan yosh avlodga katta umid bildiriladi.

«... yoshlarmizga ishonamiz, suyanamiz, kelajak umidlarimizni ular bilan bog'laymiz. Ularga qancha tez yo'l ochib byer sak, ilmida, ijodda shuncha ko'p izlanish, bahs bo'ladi. Izlanish, bahs, munozara

bor joyda esa haqiqat yuzaga chiqadi, taraqqiyot bo'ladi», -deydi yurtboshimiz.

Xullas, Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari boy o'tmishimizni chuqur o'rganish, xolis tadqiq etishda, keng ommaga targ'ib qilishda va yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

Shuning uchun ham Universitetimiz talabalariga O'zbekiston tarixi fanini o'rganish jarayonida, o'z mustaqil ishlarini tashkil qilishda hurmatli Prezidentimizning bu asari muhim omil bo'ladi, degan umiddamiz.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: SHarq, 1998.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1999.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000.

O'zingizni sinab ko'ring

1. Nima uchun bu asar aynan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» deb nomlangan?
2. «Tarixiy xotirasi bor inson-idorali inson» iborasini qanday tushunasiz?
3. I.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida qanday dolzarb masalalar ko'tarilgan?
4. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, iborasining ma'nosi nima?

5. Nima sababdan sho'rolar davrida yurtimiz o'tmishi kamsitilar, tarixiy voqealar va shaxslar g'arazlik bilan yoritilar edi?
6. «Temur tuzuklari»ni Prezidentimiz qanday ta'riflaydi?
7. I.Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir» iborasini qanday tushunasiz?
8. I.Karimovning «Kuch - bilim va tafakkurda» shiori qanday ma'noni anglatadi?

Mavzu uchun test vazifalari

1. **I.Karimov qachon tarixchi olimlar bilan uchrashib dolzarb vazifalarni ko'rsatib byer di?**
 - A. 1991 yil dekabr oyida.
 - B. 1992 yil mart oyida.
 - V. 1998 yil iyun oyida.
 - G. 2000 yil yanvar oyida.
 - D 2006 yil sentyabr oyida.
2. **«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari qachon, qayer da chop qilingan?**
 - A. 1998 yil «Sharq» nashriyotida.
 - B. 1999 yil «O'qituvchi» nashriyotida.
 - V. 2000 yil «Fan» nashriyotida.
 - G. 2001 yil «Myer os» nashriyotida.
 - D. 2002 yil «Yosh avlod» nashriyotida.
3. **Tarixiy xotira tushunchasi bu...**
 - A. O'z tarixini yaxshi bilish.
 - B. Tarixiy ildizini izlash.
 - V. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson.
 - G. Tarix saboqlaridan xulosa chiqarish.
 - D. Tarixiy ongni shakllantirish.

4. Asarda qaysi dolzarb masalalar ko'tarilgan?

- A. Davlat, davlatchilik, uning qachondan paydo bo'lganligi.
- B. O'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi)ga.
- V. O'zbek xalqining madaniyatiga, ma'naviyatiga.
- G. Tarixni xolis yoritishga.
- D. Demokratik jarayonni kuchaytirishga.

5. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarining yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni.

- A. Komil insonni tarbiyalash.
- B. Yoshlarning ichiga kirish, ularning yuragini yondirish.
- V. Yoshlarga ishonish, suyanish, kelajak umidlarni ular bilan bog'lash.
- G. Yoshlarning ijodiga, izlanishiga keng yo'l ochib byer ish.
- D. Mustaqil fikrlaydigan, bilimli, ma'rifatli, odob-axloqli yoshlarga e'tibor qaratish.

TURKIY XALQLARNING KELIB CHIQISHI, TARQALISHI VA HOZIRGI ZAMON

REJA:

1. Millat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
2. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi va shakllanish jarayoni.
3. Xalqimiz ma'naviy qiyofasining asoslari va hozirgi zamonda turkiy xalqlar.

Millat arabcha so'z bo'lib, odatda, xalq ma'nosini anglatadi. Adabiyotlarda millat-bu kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit

hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida uzoq vaqt davomida shakllangan barqaror birligi, deb ta'riflanadi.

Etnogenez elat, millatning kelib chiqish mazmunini anglatadi.

Etnik tarix ma'lum bir hududda yashovchi u yoki bu xalqning ajdodlaridan boshlanib, elat shakllanishini, uning taraqqiy etish bosqichlarini va elatning emirilishi yoki rivojlanib, millat darajasiga etishishi davrini o'z ichiga oladi. SHakllanayotgan yangi etnosga ma'lum hududda yashagan tub xalqlar yoki etnik guruhlardan tashqari, boshqa hududlardan kelgan etnik, antropologik va madaniy jihatdan bir xilda bo'lmagan etnoslarning yoki etnik guruhlarining aralashib, qorishib ketishidan ham elat vujudga kelishi mumkin. Dunyoda mavjud bo'lgan xalqlarning barchasi turli etnik guruhlarining qo'shilishidan vujudga kelgan. Ammo yangi kelgan etnik guruhlar tub xalqlarning «qoni»ni yoki genetikasini jiddiy o'zgartira olmaganlar. Uzoq davr davomida tub joy aholisiga qorishib, singib ketganlar.

Yer yuzida yashayotgan barcha xalqlar to'satdan yoki tasodifan paydo bo'lgan emas. Bir guruh xalqlar o'zlarining etnik nomlarini asrlar osha saqlab kelishgan, boshqalari esa, o'zga bir elatlar tarkibida hayot kechirishgan. Ba'zi etnik qatlamlar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabat tufayli hamda ayrim etnik guruhlarining nufuzi ta'sirida boshqa qavmlarga singib ketgan.

Turkistonning tarixi ham qadimiy bo'lib, turk so'zi etnik nom tarzida uzoq zamonlar osha ma'lum bo'lgan. Lekin yozma manbalarda milodiy sananing V-VI asrlariga qadar qayd etilmagan. Turk nomi tarixiy yozma manbalarda paydo bo'lmasdan ilgari turk xalqlari skif, xunlar nomi bilan yuritilgan.

Keyingi yillarda O'zbekistonda olib borilgan arxeologik qazishlar, kuzatish va tadqiqotlar natijasida miloddan avvalgi II-I asrlar, milodning V asrlarida istiqomat qilgan elatlarning hayoti va ilk madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar to'plandi. Bunga ko'ra O'rta Osiyoda odamlar tosh davridan boshlab yashab kelgan ekanlar. Antropolog olim T.Xo'jaev qariyb 20 yil mobaynida O'rta Osiyoning turli hududlaridan topilgan 500ga yaqin antropologik matyer ial asosida hozirgi o'zbek va tojiklarga xos antropologik tip miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxirlari va milodning boshlarida Sayxun (Sirdaryo)ning o'rta va quyi oqimlarida shakllanib, keyinchalik milodning II-III asrlarida Farg'ona bilan Xorazm vohalariga, Zarafshon

vodiysiga ko'chib o'tganligini isbot qildi. Qadimgi Eron, Hindiston, YUnon, Rim va Xitoy manbalarining guvohlik byer ishicha, o'zbeklarning kelib chiqishi tarixda saklar, massagetlar va toxarlar (xitoy manbalarida yue-chje) nomi bilan mashhur bo'lgan. Ular qadim zamonlarda O'rta Osiyo hamda uning tevarak-atrofida ko'chib yurgan xalqlarga, So'g'd, Xorazm, Baqtriya, Parkona (Farg'ona) va Shosh (Toshkent)ning qadimiy xalqlariga borib taqaladi. O'sha vaqtda ular yashab turgan hudud nomi bilan sug'diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parkonaliklar va Shoshliklar deb atalib, tarixda qolgan.

Bular haqidagi ma'lumotlar qadimgi Eron manbalarida, Mug' qal'asi (Tojikiston)dan topilgan so'g'diy tildagi hujjatlarda, shuningdek, Kayumars, Siyovush, Afrosiyob haqidagi afsonalarda, To'maris, SHiroq kabi qissalarda ko'plab uchraydi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda Markaziy va O'rta Osiyo, Sibir hamda shimoliy va g'arbiy Xitoy yer larida bir qancha xalqlar yashagan. Bu elatlarning bir qismi turkiyzabon bo'lganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Isiqko'l yaqinidagi miloddan avvalgi IV-III asrlarda o'tgan sak qabila oqsoqolining qabridan qadimgi yozuv namunalari topilgan. U oromiy alifbosi asosida bitilgan bo'lib, hozir ma'lum bo'lgan eng qadimgi «turkiy yozuv» deb tan olinmoqda. Turkiy yozuv Xorazm, So'g'd, Baqtar yozuvlari qatorida O'rta Osiyoning shimoliy-Sharqiy viloyatlarida shu tilli aholi yozuvi sifatida mavjud bo'lgan. Demak, O'rta Osiyoning shimoliy-Sharqiy viloyatlarida turkiy qabila va elatlar yashagan, ularning tub aholisi bo'lmish turkiy qabilalar juda erta o'z yozuviga ega bo'lganlar.

Ming yil avval Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk» nomli mashhur asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi, «Iskandar Zulqarnayn Turonni bosib olayotgan paytda turklar uzun, uchi cho'ziq bo'rk kiyib, ot chopayotib, orqa tomondagi dushmanga mahorat bilan yoydan o'q otadi» deb ta'riflagan. Xuddi shunday ta'rifni skiflar davriga oid arxeologik qazishmalariga bag'ishlangan kitobida S.Rudenko ham takrorlaydi.

Demak, qadimda Sirdaryoning o'rta va quyi sohillardagi to Oltoygacha bo'lgan hududda ko'chib yurgan qabilalar turklarning ajdodlari bo'lgan. Turkiy tillar turkumi dunyodagi keng zaminga tarqalgan va ular ko'p sonli tillardan biri sanaladi. Tadqiqotchi filolog olimlarning dalolat byer ishlaricha, hozirgi zamonda turkiyzabon xalqlarning soni 200 mln.dan ham ko'proq ekan. Tarixan ular umumiy

turkiy nomga, tomirga va tilga egab bo'lib, o'zlarining davlatini shakllantirib, shu davlatga birlashib hayot kechirganlar, ilm-fan va madaniyat sohalarini rivojlantirib kelganlar. Bunga yuqorida keltirilgan qadimiy yozma yodgorliklarimiz ham guvohlik berib turibdi. Ana shunday yozma manbalar asosida va taraqqiyot mobaynida umumiy turkiy til, alohida turkiy xalqlar va davlat tillari yuzaga kelgan.

Masalan: miloddan avvalgi IV asr oxirida sak-massaget qabilalarining biri guruhi makedoniyalik Iskandar ta'qibi natijasida Sharqiy Turkistonga borib joylashganlar. Keyingi davrlarda qadimgi Farg'onaga ko'chib kelganlar. Massagetlarning yoki toxarlarning bir qismi qadimgi Baqtriya borib, Kushonlar davlatini barpo qildilar. Bu davlatning dastlabki podshohlari o'z nomidan tanga zarb etganlarida turk so'zlarini ishlatganlar. Kushon davlatining asosiy etnik qatlami Sharqiy Eron tillarida so'zlashuvchi qadimgi Baqtriya aholisi bo'lsa-da, ammo sulola asoschilari - Kushonlar turkiy qavm edilar. Kushonlar va eftalitlar davriga oid ellin-baqtriya xatida beshinchi asrda turkiy tilda bitilgan jumlar saqlanib qolgan. V-VI asrlarga kelib, Turk hoqonligi davlati usulida boshqarish kuchayib boradi. «O'rxun-Enasoy» yodgorliklari umumiy turkiy yozma manbalar sifatida jahonga mashhur bo'ldi. Professor N.Rahmonovning «Turk hoqonligi» kitobi qadimgi yozuvlar haqida ishonarli ma'lumot beradi.

Uzoq o'tmishda o'zbek xalqining etnik tarkibini mahalliy xalqlar, shuningdek ma'lum sabablarga ko'ra O'rta Osiyoning shimoliy sharqidan kelgan turkiy xalqlar tashkil etganlar. Tarixan skif, xunlar nomi bilan yashagan xalqlar milodning VI asri o'rtalarida, o'tgan bir yarim ming yillik davr mobaynida turklar nomi bilan mashhur bo'ldi. N.Rahmonov xitoy manbalariga tayangan holda «turk» so'zi avvaliga birorta qabila nomini anglatmay, turkiy zabon elat va qabilalarning birlashmasini anglatgan, degan xulosaga keladi. Shu jumladan, o'zbeklarning ajdodlari ham shu guruhga mansub ekanligini ta'kidlaydi. Otashparastlarning muqaddas kitobi «Avesto» da ahmoniylar va sosoniylar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar va xalqlar, shular qatori Turkiston zamin xalqlari haqida ma'lumotlar bor. Bu xalqlar orasida tur (xura) deb atalgan xalq ham tilga olinadi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida, Xorazm va Farg'onada, shuningdek mazkur o'lkalar bilan tutash yerlarda istiqomat qilgan xalqlar Sharq manbalarida umumiy - «turk» nomi bilan, ular istiqomat qilgan yerlar esa «Turon» yoki

«Turkiston zamin» deb atalib kelingan. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham «Eron» va «Turon» atamaları ko'p bor tilga olinadi, har ikkala mamlakat o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Tarixchi olim A.Muhammadjonov ham topilgan so'g'd hujjatlariga asoslangan holda VII asrdayoq bu o'lkaning Turkiston deb atalganini qayd qilgan, xullas, Arab xalifaligi istilosigacha Shosh, Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, Xorazm, hatto Amudaryoning so'l qirg'og'i aholisining kattagina qismi turklashib, Movarounnahr va Xorazmning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim mavqeni egallab oldi.

X asr oxiri va XI asr boshlarida O'rta Osiyoda Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. Movarounnahrda Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan bir talay qabilalar: turgashlar, to'xsilar, qorluqlar, chigillar, o'g'uzlar, arg'in va boshqa turkiy qabilalar o'lkaning turk tillarida so'zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi. Bu davrga kelib turkiy etnik qatlamning ustunligi bir qadar ta'minlandi. Shunday qilib, Qoraxoniylar davrida o'zbek xalqi shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlandi. Eski o'zbek tiliga asos bo'lmish qorluq-chigil lahjasi rivoj topdi va yozma adabiyot darajasiga ko'tarildi. Bu lahja o'zbek xalqining umumiy tili bo'lib qoldi. YUsof Xos Hojibning «Qutadg'u bilik», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» asarlari mana shu davrning ajoyib mahsulidir.

XIII asr boshlarida, aniqrog'i, 1219 yili Movarounnahrda Chingizxon katta qo'shin bilan bostirib kirdi. Bu qo'shin tarkibida mo'g'ullar bilan bir qatorda turklar va turklashgan mo'g'ullar ham bor edi. Qorliqlar, jaloirlar, totorlar, markitlar, qurlovutlar, burgutlar, qo'ng'irotlar, barloslar, so'lduslar, boyovutlar shular jumlasidandir. Bu qabilalar, shak-shubhasiz, o'zbek xalqining etnik tarkibini yanada boyitdi. Lekin o'sha zamonlarda, XV asrga qadar, bu qabilalar o'zbek nomini olmagan edilar. Ular turk deb yoki o'z qabilasining nomi bilan atalganlar.

Sharafiddin Ali YAzdiyning «Zafarnoma»sida O'rta Osiyo va u bilan qo'shni mamlakatlarda XIV-XV asrning I yarmida istiqomat qilgan 44 ta turkiy qabila va urug'larining nomlari qayd etilgan. Bular orasida Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi o'lkalarga XIII asrda Chingizxon va XVI asr boshida Muhammad Shayboniyxon boshchiligida ko'chib kelib, o'troqlashib ketgan qabila va urug'lar orasida uchramaydigan o'ndan

ortiq qabilalar-mang'itlar, qang'lar, lochinlar, qatag'onlar, besh yuzlilar, qozoqlar va boshqalar bor. Bu qabilalar, shak-shubhasiz, mazkur yurtlarda qadimdan istiqomat qilib kelgan turkiyzabon qabilalardir. XVI asr boshida Dashti qipchoqdan ikki daryo oralig'idagi yer larga (Movarounnahr) ko'chib kelgan turk-mo'g'ul qabilalari mahalliy turkiyzabon xalqdan son jihatdan oz edi. Ularning umumiy soni 24-26 qabiladan oshmagan. Buni Hofizi Tanish Buxoriyning- "Sharafnomayi shahiy" asari ham tasdiqlaydi. XVI asrga kelib esa bu qabilalarning soni yana oshgan. Shuningdek, mashhur turkshunos olim Zaki Validiy XVI-XVII asrlarda tuzilgan "Nasibnoma"ga asoslanib o'zbeklarda 92 qabilaviy urug' bor, degan fikrni bildirdi. Bu ko'rsatilgan qabilalarning 33 tasi mo'g'ul qabilasidir, shuningdek xitoy, arab va boshqa qabilalar ham uchraydi. Lekin ularning katta qismi turkiyzabon qabilalar bo'lib, XX asrning boshlarida shulardan 45 tasi zikr etilgan. Hozirgi o'zbek xalqi shu qabilalarning chatishmalari asosida shakllangan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan qabilalar XIV asrning 80 - 90-yillaridan boshlab Sirdaryo bilan Amudaryo oralig'idagi yer larga ko'chib kela boshladilar. 1500 yili esa ular Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi Movarounnahrni, 1504-1506 yillari Xuroson bilan Xorazmni zabt etdilar. Shu vaqtdan boshlab Movarounnahrning turkiyzabon xalqi o'zbek nomini oldi. «O'zbek» etnonimining Movarounnahrda g'olib kelishiga asoslanib, o'zbek xalqining kelib chiqishini XV-XVI asrlarga olib kelib bog'lab bo'lmaydi. Odatda, xalqning tarixi uning nomidan ilgari yuradi. O'zbeklarning ajdodlari tarixda sezilarli iz qoldirdilar. Ular Somoniylar (819-1005), Qoraxoniylar (994-1212), Chig'atoy ulusi (1227-1370), Temur va Temuriylar davlati (1370-1506)ning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynaydilar. O'zbeklar XVI asrning boshlarida SHayboniylar davlatiga asos soldilar (1500-1601). Ashtarxoniylar (1601-1757) va Mang'itlar davlatini ham asosan ular boshqardilar. Qo'qon (1709-1876) va Xiva (1512-1920) xonliklari ham o'zbeklarning davlati edi. O'zbeklar o'z tarixi davomida o'zlariga hamsoya bo'lgan va ko'p vaqtlar bir davlat tarkibiga kirgan tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar va turkmanlar, Eron va Afg'oniston xalqlari bilan yaqindan iqtisodiy va madaniy hamkorlikda bo'ldilar, ulardan nimalarnidir o'rgandilar, ularga nimalarnidir o'rgatdilar. SHu bir davlat XVIII asrga kelib uchta xonlikka bo'linib ketdi. Bo'linish natijasida va boshqa ichki hamda tashqi omillar sababli

XIX asrning 60-yillarida podshoh Rusiyasiga mustamlaka bo'lib qoldi. Turkistonning taqdiri 1886 yili tuzilgan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom» deb atalgan maxsus hujjat bilan belgilandi.

Mukammal ma'naviyat milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Milliy o'zlikni anglashning mohiyati esa shaxsning o'zi mansub bo'lgan millatning tarixi, jahon tafakkur xazinasiga qo'shgan hissasini tugal tasavvur etish va bulardan iftixor qila olish, o'zi tug'ilib o'sgan, millatdoshlarining yagona Vatani bo'lgan hududiga va shu yurtdagi barcha madaniyat va qadriyatlarga daxldorlikdan huzur, g'urur, faxr his etishdir. Shuningdek, milliy manfaat va ehtiyojlarni idrok etishi hamda ular uchun xizmat qilishni o'zining burchi, deb bilishi kyer ak. Milliy o'zlikni anglash qorin qayg'usi bilan emas, balki qadr qayg'usi bilan yashamoq demakdir. O'z millatini, ajdodlarining kimligini biladigan, milliy g'ururi butun odam boshqa qavmlarga ham ehtirom ko'rsata oladi. "Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug' qozongan, millatimiz faxri bo'lmish ulug' zotlar benihoya ko'p", -deydi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutqida.

Bizning ajdodlarimiz o'tmishdagi tarixiy davrlarda qanday nom bilan atalganliklari va qanday til yoki tillarda so'zlashganliklaridan qat'i nazar, endi o'sha ajdodlarimiz asosida, ular yashagan hududlarda hozirgi o'zbek millati shakllandi va biz endilikda o'zimizni o'zbek deb angladik. SHuning uchun o'sha ajdodlarimiz orasidan chiqqan buyuk siymolar hozirgi kunda ham biz o'zbeklarning faxrimizdir. SHulardan islom tarixida eng mashhur oltita muhaddisdan uchitasi turkistonlikdir. Bular imom Islom Buxoriy, shayx Abu Muhammad al-Kashshiy va Sayid Hakim Tyer miziylardir. Ismoil Buxoriyning "Sahih"i Qur'ondan keyin ikkinchi muqaddas kitob hisoblanadi. Bizda islom tarixida so'nmas iz qoldirgan Abdurahmon ad-Doramiy, Yusuf Tyer miziy, SHayx Kaffoli Shoshiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ubaydulloh va boshqa yirik siymolar ham borligi bilan faxrlanamiz. Ajdodlarimiz nafaqat diniy ilmlarda, balki dunyoviy ilmlarda ham boshqalarga nisbatan bir necha asr oldinni ko'ra oladigan bo'lganlar. Bunday olimlarning peshvosi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiydir. Bu zot algebra fanining poydevorini qurib, uning nomini ham byer di. Al-Xorazmiyning zamondoshi Ahmad al-Farg'oni yozgan "Astronomiya asoslari" degan asar ovru paliklarga bir necha asr davomida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. XX asr boshida nemis tarixchisi X.Zutyer

IX-X asrlarda Bog'dod akademiyasida ishlagan 500 olimning ro'yxatini tuzgan. Shu olimlarning qariyb uchdan ikkisi Movarounnahr va xurosonliklar ekan. Movarounnahrliklarning ham aksariyati Xorazm, Farg'ona, Shoshdan ekan. Al-Forobiy, Byer uniy, Ibn Sinolar bizning diyorda tug'ilib, o'z vatanida yondirilgan ilm chiroqlarini boshqa yurtlarga, boshqa xalqlarga olib bordilar.

Amir Temur hukmronligi va uning avlodlari davrida ilm-fan va madaniyatning barcha sohaları rivojlandi, yurtimiz dong'i jahonga keng yoyildi. Bunga alloma Ulug'bekning butun dunyoga mashhur bo'lib ketganligini eslatib o'tish kifoyadir. Ayniqsa, uning «To'rt ulus tarixi», «Zijji jadidi Ko'ragoniy» asarlari g'oyat qimmatlidir. Mashhur olim o'z atrofiga necha o'nlab olimlarni yig'ib, o'z davrining ilm-fan akademiyasini yaratgan edi. Uning kutubxonasi ham dunyodagi eng boy kutubxonalardan biri bo'lgan. Ana shu va so'nggi davrda yashab, ilm-fan yo'lida jon fido qilgan mashhur olimlar: Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi, Fazlulloh Abullaysi, Qozizoda Rumiy va boshqa olimu adiblarning ta'rifu tavsifi dunyoga mashhurdir. Nasrimiz pirlari bo'lgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, muxtasar qilib aytganda, nomlari jild kitoblarga sig'magan samarqandiylar, buxoriylar, tyer miziylar, farg'oniylar va turkistoniylar avlodlarimiz. Bugun biz shuncha buyuk zotlarini byyer gan diyorimiz bilan haqli ravishda faxrlanishimiz kyer ak.

Bilim tufayli inson o'zini taniydi, o'zini tanigan inson nafaqat o'z taqdiri, shu bilan birga millat va mamlakat taqdiri egasi bo'ladi, o'zini tanigan inson nafaqat o'z ahvolidan, alalxusus millat va davlat ahvolidan ham ogoh bo'ladi. Abdulla Avloniy «Ma'rifat-bu shijoatdir» deganida, eng avvalo, mana shu ishonchni nazarda tutgan edi.

Hozirgi zamonda har bir o'g'il-qiz ilm-ma'rifatli, diyonatli, yuksak axloqlik bo'lishlari bilan birgalikda tillarni, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirishlari lozim. YOshlarimiz, ayniqsa, ilmu toliblarimiz qadriyatlar bilan bir qatorda koinot siru asrorigacha bo'lgan dunyoviy bilimlarni tyer an va puxta o'rganishlari zarur. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kyer ak. «Aqliy zakovat va ruhiy, ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir», - deb ta'kidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov.

Hozirgi davrga kelib turkiy elatlar Turkiyada, Ozarbayjonda, O'rta Osiyo respublikalarida, shuningdek Afg'onistonda, Sinszyan,

Rossiya hududlarida istiqomat qilib keladi. Ularning umumiy soni 220 millionga yaqindir. Demak, turkiyzabon aholi yer yuzining kattagina qismida yashab kelmoqda. Uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar natijasida turli-tuman turkiy qavm va qabilalar millat darajasigacha ko'tarilib, jamiyatda o'z o'rniga, mavqeiga egadirlar.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sgarq, 1998.
2. Abulg'oziy Baxodirxon SHajarai turk. -T.: Cho'lpon, 1992.
3. Aytmatov CH.: SHoxonov M. CHo'qqida qolgan ovchining ohu zori. -T.: Sharq, 1998.
4. Ahmedov B. O'zbek ulusi. -T.: Nur, 1992.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -T.: O'qituvchi. 1994.
6. Vatan tuyg'usi. -T., 1996.
7. Validiy Z. O'zbek urug'lari. -T., 1992.
8. Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi. -T., 1993.
9. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. -T.: Cho'lpon. 1995.
10. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. -T.: Cho'lpon, 1993.
11. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. -T.: Sharq, 2001.

O'zingizni sinab ko'ring

1. El-elat, millat etnonimlari qanday ma'noni anglatadi?
2. Turkiy qavmlar qaysi geografik mintaqalarda istiqomat qilib kelishgan?
3. Turkiy qavmlarning eng qadimgi qabilalaridan qaysi birlarini bilasiz?
4. O'zbek xalqining etnik rivojlanishidagi muhim davrlarni bilasizmi?
5. «O'zbek» atamasi qachondan keng qo'llanila boshlandi?
6. «Mukammal ma'naviyat» deganda nimani tushunasiz?
7. Turkiyzabon xalqlar ma'naviy qiyofasining asoslari deganda nimani tushunasiz?

8. Milliy qadriyatlarimizning asoschilarini bilasizmi?

Mavzu uchun test vazifalari

1. Qabila, elat, millat tushunchalaridagi to'g'ri ta'rifni ajrating.

- A. Qabila forschadan olingan bo'lib, ko'pchilik, jamoa degan ma'noni byer adi.
- B. Qabila arabchadan olingan bo'lib, u etnik guruh, birlik mazmunini anglatadi.
- V. Elat mo'g'ulcha-turkiycha so'z bo'lib, u kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligidir.
- G. Millat arabcha so'z bo'lib, odatda xalq ma'nosini anglatadi.
- D. Millat turkcha so'z bo'lib, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi aholi ma'nosini anglatadi.

2. O'zbek xalqining etnik shakllanishidagi muhim davrlarni ko'rsating.

- A. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan milodning VII asrigacha.
- B. Milodning IX-XII asrlari.
- V. Milodning XIII-XV asrlari.
- G. Milodning XVI asri.
- D. Milodning XIX asri.

3. Quyidagi qaysi asarlarda turkiy xalqlarning etnik shakllanishi haqida ma'lumotlar bor?

- A. N.Raxmonov, «Turk hoqonligi».
- B. Sharafiddin Ali YAzdiy, «Zafarnoma».
- V. Xofizi Tanish Buxoriy, «SHarafnomaiy shahiy».
- G. Zaki, Validiy «Nasabnoma».
- D. Hyer man Vambyer i «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi».

4. Qachondan boshlab o'zbek atamasi mintaqamizda keng qo'llanila boshlandi?

- A. Milodning I asrida tashkil topgan Kushon podshohligi davrida.
- B. Milodning VII asrida Turk hoqonligi davrida.
- V. Milodning XI asriga oid arab manbaida qavm sifatida tilga olingan davrida.
- G. Milodning XV asrida "o'zbekxon", "o'zbek ulusi", "ko'chmanchi o'zbeklar" degan iboralar mavjud bo'lgan davrdan.
- D. XVI asr boshlarida O'rta Osiyoda Shayboniylar hukmronligi davrida.

5. O'zbek xalqi ma'naviy qiyofasining asoslari bu...

- A. Milliy o'zlikni anglash
- B. Xalqimizning jahon tafakkur xazinasiga qo'shgan hissasi
- V. Yurtimizdan chiqqan buyuk allomalar, ularning taraqqiyotga qo'shgan ulushi.
- G. Podshohlar tomonidan olib borilgan jangu-jadallar.
- D. Davlat boshqarish tizimlari.

6. Xozirgi davrda qaysi geografik hududlarda turkiy xalqlar yashaydi?

- A. Turkiyada, Ozarbayjonda.
- B. O'rta Osiyo respublikalarida.
- V. Afg'onistonda.
- G. Sinszyanda.
- D. Rossiyada.

EFTALIYLAR, TURK HOQONLIGI, ARABLAR BOSQINI VA HUKMRONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYO

REJA:

- 1. Eftaliylar davlati, undagi boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Yerga egalik munosabatlarining shakllana boshlashi.
- 2. Turk hoqonligi, davlat boshqaruv tizimi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.
- 3. Arablar istilosi va hukmronligi davrida O'rta Osiyo.

Kushonlar davlati inqirozidan so'ng boshlanib ketgan tarqoqlik oqibatida har bir vohada alohida davlatchalar paydo bo'ldi. Bu davlatchalarning hukmdorlari har xil hududda turlicha nomlar bilan yuritilgan: Buxoroda buxorxudot, Chog'aniyonda chog'anxudot, Vardonzida-varдонxudot, Toshkentda to'dan, Samarqand va Farg'onada-ixshid, Ustrashonada-afshin, Xorazmda xorazmshoh, Iloqda dehqon va hokazo. Bu hukmdorlarning, odatda, o'z harbiy kuchlari chokarlari bo'lgan. Markaziy hokimiyat ana shu hukmdorlar uyushmasidan tashkil topgan edi.

Mamlakatimiz hududida ilk o'rta asrlar davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biri Eftaliylar davlatidir. Eftaliylarning etnik jihatdan qaysi qabila - xalqqa mansubligi, tillari tarixda etarlicha tadqiq qilingan emas.

Olimlarning xulosalariga qaraganda, milodning VI asri o'rtalarida kushonlar bilan eftaliylar boshqa qabilalar bilan birlashganlar. Ularni xioniylar va kidariylar deb atashgan. Ba'zi tarixchilar xioniylar (xonlar)ni kushonlarning aynan o'zi deb hisoblaydilar. Kidariylar nomi bilan atalgan qabila (bu nom qabila boshlig'i va podshohi Kidar nomi bilan bog'liq) esa V asrda massaget qabilalaridan ajralib chiqqan, deb taxmin qilinadi.

Xullas, nima bo'lganda ham, muarrihlar eftaliylarni asli O'rta Osiyoda ilgaridan yashab kelgan sak-massaget va xunn qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. «Eftal» so'zi esa eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'liqdir. Vaxshunvor 457 yildan e'tiboran Chog'aniyon, Toxariston, Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib, O'rta Osiyoda katta davlatga asos soldi.

V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida Eftaliylar davlati hududlariga O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yer lari kirar edi.

Eftaliylar zamonida saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Davlat boshqaruv tipi konfedyer ativ podshohlik bo'lib, boshqaruv shakli cheklangan monarxiya bo'lgan. Taxt vorisini aniqlab, taqdim etadigan kengash mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo't'tabar vakillari, amirlar, yirik arkonlardan iborat bo'lgan. Katta hududni egallagan bu davlatda ba'zi katta viloyatlar mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan.

Eftaliylarning harbiy qo'shinlari katta kuchga ega bo'lgan. Askarlari qo'lida harbiy qurol-yarog'lardan gurzi, o'q-yoy va, asosiysi,

qilich muhim o'rin tutgan. Ular lashkarlarining asosini otliq askarlar tashkil etgan.

Sosoniylarning sharqqa yurishlari eftaliylarning qarshiligi tufayli to'xtadi. Ular Eron podshohlarining ichki siyosatiga ham aralashib turdilar, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida bo'lgan. Eron davlati hal yili efataliylarga o'lpon to'lab turgan.

Bu davrda jamiyatda yer ga egalik munosabati shakllanayotgan bo'lsa-da, qullar mehnatidan foydalanish davom etgan.

Qaror topayotgan yyer ga egalik qilish munosabatlariga ko'ra, katta yer larni egallab olganlar dehqon nomi bilan atalgan. «Dehqon» qishloq hokimi ma'nosini anglatgan. O'zining kichikroq yer ida xo'jalik yuritganlar kashivarzlar, yer idan ajralib qolib dehqon xo'jaliklarida yollanib ishlaganlar kadivarlar deb nomlangan.

Eftaliylarning bir qismi ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullansalar, asosiy qismi Shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi feodal munosabatlarning qaror topa boshlashi bilan mulkdor zodagon tabaqa vakllari «dehqonlar» qo'lga o'ta boshlagan. Bu esa erkin dehqonlarning zodagon dehqonlarga qaram kadivarlarga aylanishiga asos bo'lgan.

Eftaliylar qasrlar qurilishiga ahamiyat byyer gan. Bu davrda qurilgan qasrlar 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon qilib yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. Saroy va qasrlar qurilishida V asrdan boshlab pishiq g'ishtlar ishlatila boshlangan. Saroy, ibodatxonalar devorlari rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi bo'lib, u buxorxudotlarning VI-VII asrlardagi qarorgohi bo'lgan.

Eftaliylar davrida xunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, chilangirlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kabi turlari yaxshi taraqqiy etgan. Chochda yasalgan o'q va yoy «kamoni chochiy» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Eftaliylar Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan elchilik, savdo-sotiq munosabatlarini olib borishgan.

Shunday qilib, V-VI asrlarda yurtimizda eftaliylar sulolasi 100 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bu sulola vakillari tarqoq mamlakatni

birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotining yuksalishiga erishdi.

Ammo 563-567- yillarda turk hoqonlari tomonidan byer ilgan zarbadan so'ng eftaliylar inqiroz sari yuzlandilar va hoqonlik ta'siriga tushib qoldilar.

VI asr o'rtalarida Oltoyda Turk hoqonligi tashkil topdi. Bu davlatning asoschilari Ashina urug'idan bo'lmish Asan va Tuular turkiy qabilalar ittifoqini tuzgan edilar. Tuuning o'g'li Bumin 551 yilda Markaziy Osiyoda eng kuchli hisoblangan jo'janlar xonini engib, Turk hoqonligi davlatiga asos soldi. Hoqonlikda birinchi hukmdor Bumin bo'lib, u taxtga Ili hoqon unvoni bilan o'tirdi.

552-555- yillarda Buminning ukasi Istami «o'n tuman qo'shinining» sarkardasi bo'lib, g'arbiy yer larni o'ziga bo'ysundira boshladi. Eftaliylar davlati tor-mor etilgandan so'ng bosib olingan hududlar bevosita g'oliblarning oliy hokimiyatiga bo'ysundirilgan edi.

Hoqonlik o'sha davrning eng yirik davlatlari Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoyning siyosiy va iqtisodiy munosabatlari tizimiga qo'shildi va Buyuk ipak yo'li ustidan nazorat o'rnatish uchun kurasha boshladi.

Turk hoqonligining tarixi uzluksiz urushlar va o'zaro ichki kurashlar bilan to'lgan edi. Buning natijasida 581-603- yillar oralig'ida u ikki qismga: Sharqiy va G'arbiy turk hoqonliklariga bo'linib ketdi.

G'arbiy hoqonlik tarkibiga Ettisuv, Chu vodiysi, Irtish, Ishim daryolari bo'yidagi yer lar, O'rta Osiyodagi yarim mustaqil davlatlar qo'shib olingan edi. 630-632 yillarga kelib G'arbiy turk hoqonligi o'z yuksalish cho'qqisiga etdi.

Qadimgi turklarning tassavuriga ko'ra, davlatchilikni o'zida mujassam etuvchi shaxs hoqon yoki uning sulolasi bo'lgan. Hoqon uch kuchga tayanar edi. Bular: Osmon-Tangri irodasi, yer -suv sahovati va turk xalqining faoliyati edi. Hoqonning rafiqasi xotun unvoniga ega bo'lgan. Keyinchalik bu unvonni olgan ayol etnik mansubligidan qat'i nazar, umuman hukmdorning rafiqasini anglatadigan bo'lib qoldi.

Taxtga vorislik tartibiga ko'ra, taxt otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, kichik amakidan katta jiyanga myer os qolar edi. Shahzodalar o'zlarining hukmdorlik navbatlari kelishini kutib, ungacha o'zlariga byer ilgan uluslarda hokimlik qilar edilar.

Davlatni boshqarishda hoqonga, eng avvalo, hukmron sulola a'zolari va ular tomonidan yaratilgan boshqaruv apparati yordam byer

ar edi. Hoqonning qarindoshlari va og'a-inilariga tegin unvoni byer ilgan. Davlatda turli-tuman lavozimlar bo'lib, ulardan beshtasi oliy mansab hisoblangan: yabg'u, shad, teginlar, eltabarlar va tudunlar. Barcha mansablar myer os qilib qoldirilgan. Tudunlar bo'ysundirilganlar ustidan nazorat qilish va soliqlar yig'ish vazifasi bilan shug'ullanganlar.

Turk davlati etarli darajada ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo'lgan. Jazoning asosiy turlari qatl etish, kompozitsiya (ya'ni tovon to'lash) hisoblangan. O'lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko'tarish, sotqinlik va hokozo) hamda odam o'ldirganlik uchun byer ilgan. Odam o'ldirganlik uchun qatl etish yoki odam a'zosini kesib tashlash talion deyilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar uchun kompozitsiya, ya'ni yetkazilgan zararni o'n barobar qilib to'lash qo'llanilgan.

Hoqonlikda aholi va qo'shin bo'linishida o'nlik tizimi mavjud bo'lgan. Ular orasida shaxsiy soqchilar, hoqonlarning zirhli gvardiyasi ajralib turgan. 10, 20 va 40 kishilik alohida qo'shilmalar shadlar va yobg'u qo'mondonligida bo'lgan. Qo'shinda xizmat qilish majburiy hisoblangan. Davlat odatda 100 ming kishilik qo'shin to'play olish qudratiga ega bo'lgan. Bunday qo'shinlar davlat qudratining asosiy tayanchi hisoblangan.

VII asr o'rtalariga kelib hoqonlik zaiflashib, bir necha qismlarga bo'linib ketgan. Bu vaziyatdan Xitoyning Tan saltanati foydalanib, O'rta Osiyo yer lariga bir necha bor suqilib kirishga harakat qilib ko'rgan.

Hoqonlik ulkan hudud ichida tinchlik saqlashga erishgan, bo'ysundirilgan xalqlarning ichki ishlariga aralashmagan va ularning xo'jalik, savdo-sotiq, madaniyat sohalaridagi faoliyatiga to'sqinlik qilmagan. Zabt etilgan mahalliy aholi o'z ijtimoiy tuzilmalarini saqlab qolgan. Bu tuzilmalar ustidan noib-tutuq nazorat qilib turgan.

O'rta Osiyoning turk hoqonligi tarkibida bo'lganligi ijobiy ahamiyatga ega edi. U turkiy qabilalarning jipslashuviga xizmat qildi, bir qator turkiy xalqlarning shakllanishiga asos soldi. Hoqonlikning qudratli harbiy tashkiloti Xitoy va Eronning O'rta Osiyoga suqilib kirishiga yo'l qo'ymadi. Ulkan davlat birlashmalarining tashkil topishi hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turk hoqonligi davrida davlatchilik O'rta Osiyoning qadimiy an'analari va yangi turklar-ko'chmanchilar tomonidan keltirilgan aan'analar asosida o'ziga xos

xususiyat kasb etdi. Bunda siyosiy ittifoq: O'rta Osiyodagi mustaqil va yarim mustaqil mulklarning fedyer asiyasi shakllandi. Bu fedyer asiyada tashkil topgan davlatchilik ma'lum ma'noda yuqori bosqichga ko'tarilgan bo'lib, o'sha davrning hayotiy talablari va xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Bu esa o'zbek davlatchiligi poydevorini mustahkamlash tomon qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi.

VII-VIII asrlarda markazlashgan Arab xalifaligi Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Vizantiya va Eronni bo'ysundirib, kuchli imperiya yaratildi. Xalifalik O'rta Osiyo yerlariga ham etib keldi.

Arablar Amudaryo (Jayxun)ning shimolida joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya'ni «daryoning ortidagi yerlar» deb nom berildi. Hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-Sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar esa Xuroson deb yuritilgan. Avval boshda Xurosonning markaziy shahri Marv, keyinchalik Hirot bo'lgan.

Arablarining Movarounnahrqa qarshi harbiy yurishlari o'z maqsad va rejalar bilan 2 davrga bo'linadi. 1-davrda halifalik istilo etishni emas, balki harbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlar kuch-qudratini sinab ko'rish, geografik, harbiy, iqtisodiy, siyosiy joylashuvini o'rganish, kichik yurishlar orqali o'ljalar orttirish rejasini amalga oshiradi. Bu davr 650-704 yillarni o'z ichiga oladi.

704 yili xalifalik tomonidan yangi tayin etilgan Xuroson noibi Qutayba ibn Muslimga Movarounnahrni butkul egallash va qat'iyat bilan harakat qilish topshiriladi. 705-715 yillar oralig'ida butun Movarounnahr bosib olindi.

O'rta Osiyo bosib olinganidan so'ng bu hududlarni boshqarish markazi Marv shahri bo'lib qolgan edi. Bu yerda xalifalikning noibi turgan va u Movarounnahr va Xurosonni idora qilgan. Dehqonlar xalifalik noibining mahalliy aholi orasidan bo'lgan vakiliga bo'ysunganlar. Bunday kishilar amir unvoniga ega hisoblanar edilar.

Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul-vuzaro (ulug' vazir)ga tayangan. Harbiy ishlar, umuman, harbiy qo'shinlar amir ul-umaro qo'li ostida bo'lgan. Xalifa turli masalalarni devon ad-dar, ya'ni kengashda ko'rib chiqar edi. Devon ad-dar uchta asosiy devonga bo'lingan, ular devon al-mashriq, devon al-mag'rib va devon al-xarajdan iborat bo'lgan.

Movarounnahrqa tegishli masalalar devon al-mashriqda hal etilar edi.

Dehqonlar orasida yer -mulk, shaxsiy uy-joy va qo'rg'onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilardi. Har bir huquqiy muammo islom qonun-qoidalariga binoan ko'rib chiqilgan. Islom huquqshunosligining asosini shariat tashkil qilgan.

Shariat asosan quyidagi manbalarga tayanadi:

1. Qur'oni Karim - musulmonlarning muqaddas kitobi.
2. Xadisi Sharif - Muhammad payg'ambarning nasihatlar, ko'rsatmalari va faoliyati bilan bog'liq ahloqiy-huquqiy me'yorlar.
3. Irodali xalifalarning odil qarorlari va farmoyishlari.
4. Jamoada nufuzli, obro'-e'tiborli musulmon huquqshunoslarning turli savollarga javoblari va tavsiyalari.

Yuqoridagi muhim manbalar qatorida shariatda urf-odatlar bilan ham hisoblashilgan. Udumlar turli xalqlarda har xil bo'lganligi sababli, ular shariat asoslariga mos holda qabul qilingan. O'rta Osiyo xalqlarining zardushtiylik davridan saqlanib qolgan marosimlari, to'ylardagi ayrim udumlar, bayramlar va shunga o'xshash an'analar islom dini bilan muvofiqlashtirilgan.

Iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarmaslik maqsadida arablar bu yerda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bu tizimga yer solig'i-hiroj, chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqdan zakot hamda Islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan juz'ya solig'i ham qo'shildi.

Bag'doddan maxsus soliq yig'uvchi Buxoroga kelib soliqlarni o'zi jamlab olib ketgan. Soliqlar pul yoki mahsulot shaklida to'lanib turilgan. Xiroj xalifalikning mulki va xazinaga tushadigan daromadning asosini tashkil etardi. Yer solig'ining bir qismi sug'orish inshootlari barpo etishga sarflangan, boshqa qismi esa xalifa xazinasini to'ldirardi.

Soliq undirish og'ir kechgan. Soliq yig'uvchilarning o'zboshimchaliklari, talon-tarajlik, urushlar, tabiat inijligidan zarar ko'rgan aholining ko'p qismining xonavayron bo'lishiga olib kelardi. Movarounnahrda bu jarayon ijtimoiy toifalar orasidagi farqni keskin o'zgartirardi va turli-tuman ziddiyatlarga sabab bo'lardi. Shuningdek, isyon ko'targan va qo'zg'olonlarda qatnashgan aholining mulklari tortib olinardi, o'zlari qatl etilardi, ular joylashgan yerlar iqtisodiy ahvolda harbiylar va amaldorlarga bo'lib berildi. Arablar olib borayotgan bunday siyosatga qarshi ko'plab xalq ozodlik harakatlari bo'lib o'tirdi. G'urak, Devashtich, Muqanna kabi vatanparvarlar boshchiligidagi ozodlik harakatlari shular jumlasidandir.

SHunday qilib, VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Sug'diyonada buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolishga harakat qilgan edilar. SHu tarzda arablar Movarounnahr siyosiy tizim va diniy e'tiqodiga o'z ta'sirini o'tkaza oldi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1994.
2. I.A.Karimov. Olooh qalbmizda, yuragimizda. -T.: O'zbekiston, 1999.
3. Abu Rayhon Byer uniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-jild. -T.: Fan, 1968.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. -T.: SHarq, 2000.
5. Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi. -T., 1993.
6. Tarixiy atamashunoslik. -T., 2002.
7. O'zbekiston tarixi. 1-qism. -T.: Univyer sitet, 1997.
8. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti (A.Sagdullaev, B.Aminov, O'.Mavlonov, N.Norqulov). -T.: Akademiya, 2000.
9. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ochyer klari. -T.: SHarq, 2001.
10. O'zbekiston tarixi. -T.: YAngi avlod, 2005.

O'zingizni sinab ko'ring

1. Eftaliylar davlatiga qachon, kim tomonidan asos solingan?
2. Yer egalarini qanday atashgan?
3. Eftaliylar davlatidagi boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
4. Turk hoqonligi qachon tashkil topgan?
5. G'arbiy turk hoqonligiga qaysi hududlar kirgan?
6. Turk hoqonligi o'zbek xalqining etnik shakllanishida qanday rol o'ynagan?
7. Arablar qachondan O'rta Osiyoni bosib ola boshladilar?
8. O'rta Osiyoda arablar xukmronligi davrida qanday soliq siyosati joriy etilgan?

9. O'rta Osiyoda arablarga qarshi qanday qo'zg'olonlar ko'tarildi?
10. Islom ta'limoti namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

Mavzu uchun test vazifalari

1. Eftaliylar davlatining boshqaruv tizimini aniqlang.

- A. Konfedyer ativ podsholik, boshqaruv shakli cheklangan monarxiya.
- B. Podsholik, boshqaruv shakli mutloq monarxiya.
- V. Davlat qonunlar asosida boshqarilgan.
- G. Katta viloyatlar mahaliy sulolalar tomonidan boshqarilgan.
- D. Davlat harbiylar tomonidan boshqarilgan.

2. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davridagi yer ga egalik munosabatlarini aniqlang.

- A. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida yer egalari bo'lmagan.
- B. Yer va ko'chmas mulk egalari «Dehqonlar» deb atalgan.
- V. Hamma yer lar davlatniki bo'lib, yyer ga xususiy mulkchilik umuman bo'lmagan.
- G. Dehqonlarga qaram bo'lib qolgan ziroatkor aholi «Kadivarlar» deyilgan.
- D. Ziroatkor jamoalarning oddiy mehnatkash a'zolari «Kashivarzlar» deb yuritilgan.

3. Turk hoqonligiga qachon kim tomonidan asos solindi?

- A. 551 yili Bumin.
- B. 551 yili Istamin.
- V. 553 yili Mag'anxon.
- G. 618 yili Tun YAbg'u.
- D. 630 yili Qora CHurii.

4. Turk hoqonligida boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?

- A. Davlatni Hoqon va uning aka-uka, qarindoshlari boshqargan.
- B. Taxt akadan ukaga, kichik amakidan katta jiyanga myer os qolgan.
- V. Davlatda oliy mansablar, yabg'u, shad, teginlar, eltabarlar, tudunlar hisoblangan.

- G. Yetarli darajada ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo'lgan.
- D. Hoqon bo'ysundirilgan xalqlarning ichki ishlariga aralashmagan.
- 5. O'rta Osiyoda arablar istilosi va hukmronligi davridagi asosiy o'zgarishlarni ko'rsating.**
- A. Arab hukmdorlari O'rta Osiyoda mustamlakachilik ko'rinishidagi siyosat yurgizdilar.
- B. O'rta Osiyoda markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldilar.
- V. Movarounnahrda yangi boshqaruv tizimi va soliq siyosati joriy qilindi.
- G. O'zbek xalqining etnik shakllanishida katta rol o'ynadi.
- D. Islomlashtirish jarayoni boshlandi.
- 6. Islom dinining xalqimiz taqdiriga ta'sirini ko'rsating.**
- A. Mahalliy xalqning madaniy va ma'naviy darajasi tushib ketdi.
- B. O'rta Osiyoda yangi imlo yozuvi mustahkam o'rin oldi.
- V. Arablar dini asosida islom madaniyati shakllandi.
- G. Islom dini mahalliy xalqning yashash tarziga, madaniyatiga, an'analariga singib ketdi.
- D. Islom madaniyati O'rta Osiyoda ilm-fan rivojiga katta turtki bo'ldi.

MO'G'ULLAR ISTILOS VA ZULMIGA QARSHI KURASH

REJA:

1. XII asr boshida Xorazm davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. O'rta Osiyoga mo'g'ullar istilosi.
3. Mo'g'ullarga qarshi milliy ozodlik harakatlari.

1161 - yilda tug'ilgan va haqiqiy ismi Temuchin bo'lgan Chingizxon otasidan qolgan Mo'g'ulistondagi Toli, Onon va Korulen daryolari oralig'idagi yerlarda hukmronlik o'rnatadi. Ustamonlik, qattiqqo'llik va kuchli intizomga asoslangan uning boshqaruv tizimi

asta-sekin naymanlar, tatarlar, uyg'urlarning yerlari hisobiga kengaytirilgan davlatga aylandi. 1206 yilda u o'z hukmronligini rasmiy e'lon qilish uchun Qoraqurum shahrida qurultoy chaqiradi. Bu majlis Chingizxon davlatining tashkil topgani, Chingizxonni ulug' xon deb atalishi va davlatning huquqiy hujjati - «Yaso» qabul qilinganligi bilan alohida diqqatga sazovor. «Yaso»ning e'lon qilinishi Chingizxonning mutlaq hukmronligi, o'ta qattiq intizom va kuchli harbiylashgan davlatning yuzaga kelganligini isbotladi.

Xorazmshohlar davlatining hukmdori Alovuddin Muhammad uzoq yillar davomida qo'shni davlatlar ustiga muvaffaqiyatli harbiy yurishlarni amalga oshirib, Ozarbayjon, Eron, Kurdiston, Iroq yerlarini qo'lga kiritgan, salkam 400 ming kishilik qo'shinga ega edi.

Chingizxon 1215 yili SHimoliy Xitoyga bosib olgach, o'z nigohini G'arbga, o'zining madaniyati, boyligi bilan shuhrat topgan mamlakat- Xorazmshohlar davlatiga qaratdi. Chingizxon 1218-1219-yillarda Sharqiy Turkiston va Ettisuv viloyatlarini deyarli talofatsiz qo'lga kiritib, Kuchluq davlatiga xotima byer gach, mo'g'ullar davlatining g'arbiy chegaralari Muhammad Xorazmshoh saltanati yerlariga bevosita tutashdi.

Ikki o'rtada hatto elchilik aloqalari ham o'rnatildi. Bunday ishni amalga oshirishda Chingizxon o'z xuzuridagi musulmonlardan foydalandi. Har ikki tomondan savdo karvonlari hay'atidan iborat elchi va vakillar o'z navbatida ayg'oqchilik vazifasini ham bajardilar.

Chingizxon o'zaro shartnoma tuzish uchun 1218 yil Xorazmga juda katta savdo karvoni va elchilarni otlantiradi. Karvon 500 tuya hamda 450 musulmon savdogar va elchilardan iborat edi. Ammo karvon yo'lda chegara Shahar O'trorda ushlab qolindi. Shahar noibi Inolchiqxon savdogar va elchilarni qirib tashlaydi. Faqat bir nafar tuyakashgina tasodif tufayli omon qolib, Chingizxonga karvonning dahshatli qismatidan xabar byer adi.

Chingizxon O'tror noibligining ushbu katta harakatidan nihoyatda xaqoratlangan bo'lsa-da, ammo g'azabini bosib Ibn Kafroj Bug'roni ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh xuzuriga elchi qilib yuboradi. Ammo elchilar Xorazmshoh tarafidan tahqirlanadi. Natijada ikki qudratli davlat o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uziladi.

Urush tahlikasi Xorazm davlati arkonlarini befarq qoldirmadi. Xorazm davlati ko'p sonli turkiy qo'shin va yaxshi qurollangan ko'ngillilar lashkari hamda etarli oziq-ovqat zahirasiga ega edi. Afsuski, podshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon byer madi. Kengashda fikrlar bo'linib ketdi. Xiva vakili SHoxobiddin Xivaqiy barcha qo'shinni Sirdaryo bo'yicha to'plab, mo'g'ullarni qarshi olish, uzoq yo'l safarida toliqib kelayotgan dushmanga hali o'zini o'nglab olmasdan turib, bor kuch bilan to'satdan katta jangda zarba byer ish to'g'risida birdan-bir to'g'ri fikr bayon qiladi. Biroq Xorazmshohga bunday maslahat ma'qul bo'lmaydi. CHunki u o'zining oliy lashkarboshilari bo'lgan qipchoq sarkardalariga tamoman ishonchsizlik bilan qarar edi. Harbiy kengashda bo'lajak urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qilindi. Xorazmshoh askar kuchlarini qal'a va istehkomlarga bo'lib yuborib, ayrim Shaharlarni mo'g'ullarga qarshi qo'yish bilan dushmanga zarba byer moqchi bo'ldi.

1219 yil kuzida Chingizxon o'g'illari Jo'ji, Chig'atoy va O'qtoy bilan birga Xorazmshoh saltanatiga qarshi kurash boshladi. Jami askari 200 mingga yaqin bo'lgan mo'g'ullarga uyg'ur xoni Idikut va Olmaliq hukmdori Sig'noq teginlar ham o'zlarining harbiy kuchlari bilan qo'shilgan edi. Chingizxon qo'shinlari karvon yo'li bilan Ili daryosidan o'tib, Sirdaryo bo'yida joylashgan O'tror shahri ustiga yurish qildi. Bu Shahar yaqinida butun harbiy kuchlarini to'plab, Movarounnahr va Xurosonni qisqa muddat ichida zabt etish uchun qo'shinni o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'trojni qamal qilish va uni egallash uchun qoldirdi. 2-qismga Jo'ji boshliq etilib, Sirdaryo etagi tomon yuborildi va unga Sig'noq, O'zgan, Byer ginlikent, Jand, YAngikent va boshqa Shaharlarni bosib olish buyurildi. 5 ming kishilik uchinchi qo'shinni Oloqno'yon va Suxetu-gorbi ismli sarkardalari qo'mondonligida Sirdaryo bo'yida joylashgan Binokent va Xo'jand Shaharlari tomon yubordi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlari bilan Qizilqum cho'li orqali o'tib Buxoro tomon lashkar tortadi.

O'trorliklar Shaharni mo'g'ullardan mudofaa qilib, uni besh oy davomida o'z qo'llarida ushlab turdilar. Shahar noibi Inolchiq o'z askarlari bilan qaladan tashqariga chiqar va bosqinchilar bilan jang qilib, ayrim askarlaridan judo bo'lib qaytar edi. Oxir-oqibatda mo'g'ullar Shaharni egallaydilar, mudofaachilarni o'ldirib Shaharni talon-taroj qiladilar.

1220-yil fevralida Chingizxon Buxoroga etib keldi. Buxoroda bu vaqtda 12 ming jangchidan iborat Shahar gornizoni va 20 minglik lashkar bo'lgan.

1220-yilning 10 fevralida mo'g'ullar Buxoroni egalladilar. Mo'g'ullar Buxoroni bir necha kun talon-taroj qildilar. Barcha uylar vayron qilinib, behisob xazinalar talandi. Asriy qo'lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib yo'qotildi. Bundan keyin mo'g'ullarga qarshi kurash xufyona davom etdi. Chingizxon tungi jangchilarni ushlab byer ishni shahar ahlidan talab qiladi. Ammo buxoroliklar g'olibning buyrug'ini bajarmay, ximoyachilarga ko'maklashadilar. Bundan g'azablangan Chingizxon shaharga o't qo'yishni buyurdi.

1220- yil Samarqandga hujum boshlandi. Mo'g'ullarning Samarqandni bosib olish uchun qilgan janglarida Shahar aholisining ko'pgina qismi qirildi. 30 ming nafarga yaqin hunarmand ahli asirga olindi.

O'sha vaqtlarda Chingizxon xizmatida bo'lgan Xitoy ruxoniysi Chon Chunning so'ziga qaraganda, mo'g'ullar bosqinidan so'ng shaharda ilgari aholining chorak qismigina qolgan edi. Mamlakat sultoni Muhammad Xorazmshoh Amudaryo soxilida saltanat chodirini qurib, bunday musibatli voqealarga bamaylixotirlik bilan qaradi. Xorazmshoh o'g'li Jaloliddin Mangubyer di va boshqalarning dushmanga qarshi kurashni tashkil etish tadbirlari to'g'risidagi oqilona maslahatlariga bepisandlik bilan qarab, chekina boshladi. U Kaspiy dengizining janubidagi orollardan birida (Ashuro) panoh topdi. Xorazmshoh sal vaqt o'tmay, orolda g'ariblikda zotiljam kasali bilan vafot etdi.

Jo'ji boshchiligidagi qo'shin Sig'noqni 7 kunlik hujumdan so'ng egalladi. 1220 yil aprelida Jandni qarshiliksiz egalladi. Binokat zabt etilgach, navbat Xo'jandga keldi. Asli nasabi turk bo'lgan Shahar hokimi Temur Malikning shaxsiy qahramonligi bilan xo'jandliklar mo'g'ullarga kutilmagan qarshilikni ko'rsatdilar.

Lekin dushman bilan kurashish foydasizligini ko'rgach, Temur Malik bor oziq-ovqat va qurollarni 70 ta kemaga yuklatib, tunda daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Ammo jangda Temur Malik qo'shini va safdoshlaridan batamom ayriladi. Faqat bir kichik guruh yigitlari bilan Urganchga etib keladi. Biroz vaqt o'tgach, u Xorazmda to'plangan qo'shin va xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. Jo'jiga qarshi

muvaqqiyatli janglar qilib, hatto undan Yangkent shahrini qaytarib oladi.

Sirdaryo havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari zabt etilgan, Chingizxon asosiy kuchini Xorazmshohlar davlatining markaziy qismi Xorazmga tashladi. Poytaxt Urganch himoyasini amir Xumortakin qo'lga topshirib, Jaloliddin Mangubyer di va Temur Maliklar qo'shin to'plash uchun Xurosonga jo'naydilar.

Poytaxt taqdiri qo'rqqoq va amalparast amir Xumortegin qo'lida qoladi. U o'zini sulton deb e'lon qilib, Gurganchni mo'g'ullardan ximoya qilishga va'da qiladi. Xuddi shu asnoda shahar yaqiniga ko'pgina mo'g'ul kuchlari kelib to'planadi. Gurganchdek katta Shaharni qamal qilish uchun shimoldan Jo'ji, Buxoro tarafidan Chig'atoy va O'qtoy askarlari bostirib keladi. Shahar axolisi dushman hujumini mardonavor qaytarib turgan bir vaqtda xoin amir Xumortegin Gurganch darvozasini ochib byer ib, o'zi qo'shini bilan mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Bosqinchilar Shahar darvozalaridan bostirib kiradilar. Mudofaachilar Shaharni har bir qarich yer ini mardona himoya qildilar. Poytaxt ko'chalarida bo'lgan janglarda shayx Najmiddin Kubro 600dan ziyod muridu izdoshlari bilan ishtirok etdi.

Najmiddin Kubro kubroviylik tariqati asoschisi, mutafakkir, shayx, vatanparvar, shoir va olim. Uning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy-al Xorazmiydir. 1145 yil Xorazmning Xivaq shahrida tug'ilgan Najmiddin Kubro shayxning taxallusi bo'lib, «dinning ulug' yulduzi» ma'nosini anglatadi. Najmiddin Kubro arab tilida bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan. Ulardan asosiylari «Favoix al-jamol va favotix al-jalol» («Jamol xushbo'yliklari va Jalolning kashfi»), «Al-ulus al-oshora» («O'nta ulus»), «Risola at-turuk» («Tariqotlar risolasi») va boshqalar. Allomaning fors tilida yozgan «Fi odobus solekin» («Soliqlar odobi haqida») risolasi ham bor.

1221-yil Gurganch mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangda mardonovor kurashgan Shahar bo'lgan. Keksa shaxs va donishmand bu insonning jangdagi qahramonligi va jasorati avlodlarga ibrat bo'lib qoldi. Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limotining rivoji va butun musulmon sharqida keng tarqalishida katta rol o'ynadi.

Xorazmshohlar davlati poytaxti bosib olingach, mo'g'ullar bosqinchilik safarlarini Amudaryo janubida joylashgan yirik savdo va madaniyat markazlari bo'lmish Balx, Xiro, Marv va G'azna kabi

Shaharlarga yo'naltirdilar. Ammo bu yerlarda Jaloliddin Mangubyerining qattiq qarshiligiga uchraydi. Xorazmshoh davlatining so'nggi hukmdori (1220-1231) Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi birinchi jangi Niso shahri yaqinida, cho'lda pistirmadagi 700 qo'shinga qarshi bo'ldi. Kutilmaganda boshlangan bu jangda Jaloliddin 300 jangchisi bilan g'alaba qozondi. Chingizxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin iziga tushadi. Gordez qal'asi yaqinida Jaloliddin mo'g'ullarning ilg'or qismini tor-mor keltiradi. So'ngra Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shini ustidan zafar quchadi, mingdan ortiq mo'g'ul askari o'ldiriladi. Bu Jaloliddinning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi. Chingizxon unga qarshi 45 ming kishilik qo'shin jo'natadi. G'azna yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin mo'g'ul qo'shini ustidan g'alaba qozongan. SHundan so'ng Jaloliddinga qarshi Chingizxonning shaxsan o'zi otlangan. 1221 yil 25 noyabrda Sind daryosi bo'yida tengsiz jangda mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin 4000 jangchisi bilan qurshovni yorib, daryoning narigi sohiliga suzib o'tgan. U ko'p yillar davomida mo'g'ullarga qarshi kurash olib borib, ona Vatanning fidoiy farzandi, moxir sarkarda ekanligini namoyish etdi. Jaloliddin keyinroq mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida Kavkazda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ldi. Ammo bu o'lkada ham mahalliy hokimlar va sultonlar o'rtasidagi nizolar uning rejasi ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiladi. SHunday qilib, eng so'nggi Xorazmshohning hukmdorligi 1231 yilning kech yozida tugatildi.

«Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxru g'ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqbolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga tik turib kurashishga, mardona zarba byer ishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir», -deb baho byer adi I.A.Karimov Jaloliddin Mangubyer di tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlarda so'zlagan nutqida.

Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xuroson iqtisodiy va madaniy hayotiga juda katta zarar etdi. Aholisining ko'p qismi qirildi. Gavjum va ko'rkam Shaharlar xarobazorga aylantirildi. Zabt etilgan o'лка va viloyatlarni Chingizxon 1224 yil o'g'illari va nabiralariga bo'lib byer gan. Jumladan, Sharqiy Turkiston, Ettisuv va Movarounnahr uning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga tegdi va Chig'atoy ulusi deb ataldi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Jaloliddin Mangubyer di tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlarda so'zlangan nutq (1999 yil 5 noyabr) 8 jild. -T.: O'zbekiston, 2000.
3. Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: G'ofur G'ulom, 1998.
4. Vambyer i X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. -T., 1990.
5. Zayniddin H. Jaloliddin Mangubyer di. -T.: Fan, 1993.
6. Ibrohimov A. Biz kim, o'zbeklar... -T.: SHarq, 1999.
7. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda - Chingizxon va Amir Temur. -T.: Xazina, 1994.
8. Masharipov O. Xorazm tarixidan lavhalar. -T., 1996.
9. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlar tarixining tarixshunosligidan lavhalar. -T.: O'qituvchi, 1993.
10. O'zbekiston tarixi. -T.: Univyer sitet. 1997.
11. O'zbekiston tarixi. Qisqacha ma'lumotnoma. -T.: SHarq, 2000.

O'zingizni sinab ko'ring

1. Chingizxon davlatida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol qanday edi?
2. XII asr boshlarida Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy ahvolni bilasizmi?
3. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishiga nima sabab bo'ldi?
4. Mo'g'ullar O'rta Osiyoni qanday istilo qildilar?
5. Mo'g'ullarga qarshi kurashgan qahramonlardan kimlarni bilasiz?
6. Nima uchun Jaloliddin Mangubyer di vatanparvar siymo deb ulug'lanadi?
7. Mo'g'ullar istilosining oqibatlari qanday bo'ldi?

Mavzu uchun test vazifalari

1. **Chingizxon qo'shinlari Movarounnahr qachon va qaysi yo'nalishda bosqinchilik yurishlarini boshladi?**
A. 1219 yilda O'qtoy va Chig'atoy O'tror shahrini qamal qildi.
B. 1219 yilda Oloq no'yon Binokat va Xo'jand Shaharlarini egallash uchun harbiy yurishlarini boshladi.
V. 1220 yilda Chingizxon Buxoroni qamal qildi va bosib oldi.
G. 1220 yilda Chingizxon Samarqandni qamal qildi va bosib oldi.
D. 1221 yilda mo'g'ullar Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lgan Urganchni bosib oldilar.
2. **Chingizxon qo'shinlariga qarshi Vatanni mardona himoya qilgan va mo'g'ullar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlarini ko'rsating.**
A. Jaloliddin Mangubyer di, Temurmalik.
B. Mahmud Yalovoch, Muhammad Xorazmshoh.
V. Muqanna.
G. Z.M.Bobur.
D. Temuchin.
3. **Mo'g'ul bosqinchiligidan so'ng Movarounnahr kim tomonidan boshqarildi?**
A. Movarounnahr Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga byer ilib, Chig'atoy ulusi deb ataldi.
B. Chig'atoy ulusini boshqarish xorazmlik yirik savdogar Mahmud Yalovochga topshirildi.
V. Chig'atoy ulusi Mahmud Torobiy tomonidan boshqarildi.
G. Chig'atoy ulusini Ma'sudbek Yalovoch boshqardi.
D. A, B, G.
4. **Alovuddin Muhammad mo'g'ullarga qarshi kurashda qanday taktika qabul qildi?**
A. Barcha qo'shinlarni birlashtirib, Markazlashgan boshqaruv tuzdi.

- B. Ulkan qo'shinni tor Shaharlarga bo'lingan holatda jo'natdi.
- V. Qo'shinni o'nlik, yuzlik va mingliklarga bo'ldi.
- G. Hech qanday taktika qo'llamadi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

5. Urganch ximoyasida qahramonlik ko'rsatgan shaxsni aniqlang.

- A. Jaloliddin Mangubiyer di.
- B. Temur Malik.
- V. Najmiddin Kubro.
- G. Maxmud Tarobiy.
- D. Alovuddin Xorazmshoh.

TEMUR TUZUKLARI VA HOZIRGI ZAMON

REJA:

1. Tarixda qonun - qoidalarining o'rni va maqsadi.
2. Temur tuzuklarining yaratilishi, uning mazmuni va mohiyati.
3. Temur tuzuklari va hozirgi zamon.

Tarixni chuqurroq o'rganar ekanmiz, ijtimoiy hayotda tartib bo'lmog'i zarurligini tushunamiz. Bu tartib davlat faoliyati birmuncha barqaror va umumiy xususiyatga ega bo'lgan qonunlar asosida tashkil etilishi lozimligini ko'ramiz.

Ana shunday qoidalar uzoq yillar davomida paydo bo'ladi, borgan sari ular takomillashib boradi. Masalan, Bobil podshosining qoidalar to'plami bo'lmish «Xammuroppi qoidalar» (m.av. XVIII asr), Sulaymon podshohning odamlarni murosaga keltirishga qaratilgan

tadbirlari (Solomonova reshenie) (m.av. X asr), mashhur Avesto kitobidagi urf-odat va an'analar tartiboti, YUnonistondagi Salon demokratiyasi (m.av. V asr) injil, tavrot qoidalar, islom shariatlari, Nizomulmulkning «Siyosatnoma»si, Kiev Rusida XI-XII asrda paydo bo'lgan YA.Mudriyning «Rus haqiqati», Chingizxonning «Yaso»si yuqorida aytilgan fikrimizning dalilidir.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «Temur tuzuklari» nomi ostida shuxrat topdi. Temur tuzuklari ikki qism, 56 banddan iborat tarixiy va huquqiy asar hisoblanadi. Bu asardan ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlari davomida foydalangan va unga yuqori baho berganlar. Jumladan Shohjahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1621-1842), Buxoro amiri Abdulahadxon (1885-1910) «Tuzuk»dan parchalar ko'chirtirib, ulardan o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

Temur tuzuklari eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, 1610-yilda fors tiliga tarjima qilindi va dunyoga «Tuzuki Temuriy» (Temur tuzuklari) nomi bilan tarqaldi. Bizga uning fors tilidagi nusxasi va fors tilidan o'zbek tiliga tarjimasining uch nusxasi etib kelgan. Eng to'liq nusxasi «Molfuzoti Temuriy» deb nomlangan va u Rossiyaning Sank-Petyer burg shahridagi Saltikov - SHchedrin nomli kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu nusxa Toshkentda 2000 yili chop etildi.

Temur tuzuklari 1783 yili fransuz, 1785-1791-yillarda hind, 1863 yili fors, 1787 yili urdu, 1894,1934 yili rus va 1857 yillarda turkiy tilda chop etildi. Temur tuzuklari hozirgi o'zbek tilida 1967-yili «Guliston» jurnalida va 1991 yil G'ofur G'ulom nashriyotida bosilib chiqdi. Sohibqiron tuzuklari 1996 yili Toshkentda o'zbek, ingliz va fransuz tillarida qayta nashr etildi.

«Tuzuklar»ning birinchi qismida Amir Temurning etti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda Markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham byer ishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon ustidan g'alabasi, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pandu nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimga tayanish, toju taxt egalarning burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar haqida gap boradi.

Temur farzandlariga murojaat qilib aytadiki, «men saltanat qurish, davlat tutish bobida o'zim qo'llagan ishlarni bir necha tuzukka bog'ladim va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdim toki farzandlarim, avlodim va zurriyotimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin».

Temurning muhim xislatlaridan biri shu ediki, u doimo esli-xushli kishilar bilan maslahatlashar, ularning fikrini inobatga olib mustaqil bir xulosaga kelar edi. U o'z atrofiga turli toifadagi maslahatgo'ylarni tez-tez to'plardi, ayrimlari bilan yakkama - yakka fikrlashar edi, pirlarining maslahatlariga ehtirom bilan qarardi.

Temur davlatni idora qilishda xalqning barcha tabaqalariga tayanish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Tuzuklarda ko'rsatilganidek, bu toifalar quyidagilar: 1. Saidlar, ulamo- shayxlar va fozillar. 2. Ehtiyotkor, qat'iyatli arboblal, keyinini o'ylab olisni ko'rib ish yurituvchi kekxa va tajribali kishilar. 3. Duogo'y odamlar. 4. Amirlar, sarhang va sipohsolar (harbiy rahbarlar) 5. Sipoh va raiyat, ya'ni askar va oddiy xalq. 6. Saltanat ishlari va uning sir-asrorini bilgan, kengash qilishga loyiq va ishonchli kishilar. 7. Vazirlar, sarkotib va devon xizmatchilari. 8. Hokimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar. 9. Hadis bilimdonlari-qissaxonlar, tarixshunoslar va oriflar. 10. Mashoyiq va sufiylar. 11. Kasbu hunar egalari. 12. Musofirlar, sayyoh va savdogarlar.

Keltirilgan mulohazalar dalolat byer adiki, Sohibqiron barchani barobar ko'rgan, turli toifadagi kishilar bilan maslahatlashishga tabiiy ehtiyoj sezgan.

Temur Movarounnahrda hokimiyatni o'z qo'liga olgach, uning dastlabki tadbirlaridan biri rejali ravishda qurultoylar o'tkazish bo'lgan. O'sha davrning tarixchisi SHarofiddin Ali YAzdiy «Zafarnoma» asarida Temur tomonidan Qarshida, Qorabog'da, Samarqandda, Balhda va boshqa joylarda o'tkazilgan qurultoylar haqida ma'lumot byer adi.

Bu anjumanlarda barcha shaxzodalar, ma'muriy rahbarlar, harbiy boshliqlar va zodagonlar ishtirok etar edi.

Amir Temur ta'kidlaydiki, «o'z qudratimni saqlash uchun men bir qo'limga beg'arazlik shamini va ikkinchi qo'limga beg'arazlik shamini olib, bu ikki sham bilan butun umr bo'yi o'z yo'limni yoritib yurdim. Men o'zimga adolatli va rahmdil to'rt vazirni tanladim. Ulardan ikkisi Mahmud SHaxxob Xurosoniy va Nasriddin Mahmud al-Aromiy erdi. Bu ikki vazirimga doimo meni kuzatib turishlarini va agar men adolatsizlik qiladurgan bo'lsam, darxol meni to'xtatishlarini, kimningdir yolg'on so'zlariga ishonsam yoki begona kimsaning mulkiga xiyonat qiladigan bo'lsam, darhol meni ogohlantirishlarini ta'kidlab qo'ydim».

«Temur tuzuklari»da davlatni idora qilishga oid 12 qoida bayon etiladi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat: 1. Islom dini va shariat qoidalariga, qonunlariga rioya qilish, uni qo'llab - quvvatlash. 2. Davlatning, mamlakatning ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar, toifalar bilan bamaslahat ish ko'rish. 4. Davlat ishlarini boshqarishda qonunlarga bo'ysinish. 5. Amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo'lish. 6. Turk, tojik, arabu ajamning turli toifalariga milliy munosabatda bo'lish. 7. Barcha qarindosh - urug' bilan yaxshi munosabatda bo'lish (martabasidan qat'i nazar). 8. Sipohiylarni hurmat qilish.

Amir Temur zamonasining buyuk saltanatini barpo qilgan bo'lsa-da, ammo u o'zini bu davlatning «qonuniy xoni» deb umrbod e'lon qilmadi. CHunki u nasl-nasabi jihatidan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. SHuning uchun ham chingiziylar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra dastlab Suyurg'atmishni (1270-1388) so'ngra uning vafotidan keyin Sulton Maxmudni (1388-1402) rasmiy xon qilib ko'tardi. Amalda markazlashgan hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqarar, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi.

Amir Temur davrida davlatning Markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, uning yonida Arkbegi hamda to'rt vazir turadi. Birinchi vazir yer soliqlari, chegara bojini undirish hamda mirshablik ishlarini bajargan. Ikkinchisi - askarlar maoshi, oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan. Uchinchi vazir harbiylar, ularning lavozimu mansablarga tayinlanishi va myer os ishlariga qaragan. To'rtinchisi - saroy xarajatlarini boshqargan.

Movarounnahrda tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur to'rt ulusga bo'ldi va to'rt o'g'liga taqsimlab byer di.

Temur tuzuklarida davlat tuzilishining asosiy bo'g'inlari, ularning vazifalari, vazirlar faoliyati, turli xil ijtimoiy guruhlar, tabaqalarga munosabat, qo'shin tuzilishi, moliya va soliq siyosati, mulkiy munosabatlar hamda shu singari dolzarb masalalar, ularni hal etish yo'llari aniq-ravshan ifodalangan. SHuningdek, tuzuklarda har bir masalani, voqea, hodisalarni taxlil etishda xolis yo'l bilan yondashish, fuqaro ahliga jabr qilmaslik, yurtga xiyonat qilmaslik, dinu diyonatga, qonun ustuvorligiga qat'iy amal qilish, adolat va haqiqat mezonlari bilan faoliyat yuritish lozimligini qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan. Amir Temur qanchalik qattiqqo'l, shijoatkor hukmdor bo'lmasin va o'zi mansub bo'lgan hukmron tabaqa manfaatlarini ko'zlamasin, biroq u hamisha adolat, haqiqat yo'lini mahkam tutib, qonunchilik tomonlariga qat'iy rioya qilgan holda siyosat yurgizishga, el, ulus manfaatlarini himoya qilishga harakat qilgan.

Temur tuzuklarida o'ta muhim mulohaza mavjud. Agar podshoh zolim bo'lib, vazir odil bo'lsa, podshohining jabr zulmini to'xtatish chora-tadbirini ko'radi. Lekin vazir zolim bo'lsa, saltanat ishlari tez muddatda inqirozga uchraydi.

Amir Temur mansabdorlarni odillik, xolislik bilan to'g'ri tanlashga e'tibor byer gan. Uning fikricha, vazir to'rt sifatga:

1) asillik va toza nasllilik; 2) aql-farosatlilik; 3) sipohu raiyat axvolidan xabardorlik; 4) Sabr chidamlilik va tinchliksevarlik sifatlariga ega bo'lishi zarur.

Tuzuklarda quyidagi satrlarni o'qiymiz: «Kamolatga erishgan vazir ulkan davlat muammolarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib ajoyib tarzda bajaradi. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aysalar eshitmaydi. Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim».

Temur oddiy dehqonlarning qiyinchiliklarini to'la tasavvur qilar edi. Masalan tuzuklarda shunday fikrlar mavjud: Hosil pishib etilmasdan oldin raiyatdan soliq olinmasin. Hosil etilgach, uch bo'lib

olinsin. Soliqlarni qonun asosida va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatib ishni urish-surishgacha olib bormasinlar, ularni bandi etib, zanjir bilan kishanlamasinlar.

Sohibqiron xalqning iqtisodiy ahvolini ko'tarish va shu orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ahamiyat byer adi. Bu xususda qo'riq va tashlandiq yer larni o'zlashtirish haqida qilingan mana shu uqtirish ham e'tiborga molikdir: «Xarob bo'lib yotgan yer ni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasliklari, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan byer ganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidaga muvafiq xiroj yig'sinlar».

Temur tuzuklarida raiyat va savdo karvonlarini muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar ham bor. Amr qilinadiki, yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar, yo'l ustida har manzilga rabotlar qursinlar, soqchilar yo'llarni qo'riqlab, savdogarlarni, musofirlarni kuzatib mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga etkazishga yordam byer sinlar.

Temur jamiyatdagi turli ko'ngilsiz ishlarni yomon ko'rgan va xalqning xavfsizligiga tahdid qiladiganlar, uning qadr-qimmatini tushiradigan salbiy narsalar-ichkilikbozlik, bezorilik, o'g'rilik va zino ishlarni qilishga qarshi kurashgan. Tuzuklarda shunday deyiladi: «O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayer da bo'lmasin, qo'lga olinsin va qonun qoida bo'yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo'rlik bilan tortib olsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zini ko'r qilsa, quloq va burunni kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki oxdos qozisi (urfu-odat bo'yicha sud qiluvchi)ga olib borib topshirsinlar». Gadoylik bilan kun kechirish ham jamiyatning va millatning obro'sini to'kadigan, qadr-qimmatini tushiradigan salbiy ijtimoiy xodisa. Temur ularni mehnatga jalb qilish zarur, bordiyu mehnatga ko'nikmasa, avvalgi odatini tashlamasa, ular yurtdan chiqarib yuborilsin, deb aytadi.

Amir Temur buyuk sarkardalikdan tashqari davlat arbobi bo'lgan. U jamiyat taraqqiyoti mazmunini, uning ob'ektiv qonunlarini va qonunlarni harakatga solish mexanizmini yaxshi anglagan yurtboshi ham edi. SHu bois ham Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining shahzoda Xumoyunga qilgan vasiyatnomasida o'g'liga «Podshohlik ishlarini puxta qilish uchun hazrat Amir Temur Sohobqironning ishlarini doimo ko'z oldingizda tuting», - deydi.

Amir Temur shaxsiy hayotida ham, tuzuklarida ham uch zabardast va mo`tabar asosga - diyonat, adolat va qattiqqo`llik bilan amalga oshirilgan siyosatga tayangan. Uning «Kuch-adolatdadir», degan shiori hozirgi mustaqil O`zbekiston siyosatida ham o`z aksini topmoqda. Davlatni idora qilishda Amir Temur tuzuklari, uning hayoti va siyosati ko`p jihatdan o`rnak va andaza bo`lmoqda. I.A.Karimov 1993 yil aprelida yozuvchilar bilan bo`lgan muloqotda «Amir Temur tuzuklarini o`qisam, xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo`laman», -degan edi.

1996 yil Amir Temur yili bo`ldi. YUNESKO tavsiyasi bilan o`tkazilgan Sohibqironning 660 yilligiga bag`ishlangan xalqaro va mintaqaviy anjumanlarda, tadbirlarda ham tuzuklarining bugungi kundagi muhim ahamiyati qayta-qayta ta`kidlandi.

1998 yil iyunda tarixchi olimlar bilan bo`lib o`tgan uchrashuvda Islom Karimov Temur tuzuklari mazmunini tahlil etib, «Bu asar davlat, saltanat, jamiyat boshqaruviga oid mumtoz asar», -deb yuksak baho byer di.

SHunday qilib, davlatni oqilona va odilona boshqarish san`ati bayon etilgan Amir Temurning bu asari bugungi kunda ham yuksak mazmuni, dolzarbligi va mohiyatini yo`qotgan emas, aksincha, u bizga ko`p jixatdan mezon bo`lmoqda.

YUrtboshimiz I.A.Karimov «Bizning tariximizda Amir Temurday ulug` siymo bor ekan, uning qoldirgan myer osi, pandu o`g`itlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni echishda bizga qo`l kelayotgan ekan, biz bu myer osni o`rganmasdan, ta`riflamasdan, targ`ibot qilmasdan haqqimiz yo`q», - deydi.

Demak Amir Temur tuzuklari, uning boy hayotiy tajribasi bugungi avlodlar uchun katta qadriyat, buyuk myer os va shu bois u xalqimizga beqiyos safarbarlik ruhini baxsh etmoqda, yangi yutuqlarga ilhomlantirmoqda.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Amir Temur faxrimiz, g`ururimiz 5-jild. -T.: O`zbekiston, 1997.
2. Temur tuzuklari. -T.: G`G`ulom, 1991.
3. O`zbekiston Respublikasi konstitusiyasi. -T.: O`zbekiston, 2006.

4. Ahmedov B. Soxibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy, siyosiy faoliyati). -T., 1996.
5. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi, 2-jildlik. -T.: Mehnat, 1992.
6. Abdunabiev A.G. O`zbekiston tarixidan lavhalari II qism (Temur tuzuklari va hozirgi zamon). -T.: TATU, 2000.

O`zingizni sinab ko`ring

1. Insoniyat hayotida qonun - qoidalar qachondan paydo bo`lgan?
2. «Temur tuzuklari» nima sababdan ko`p tillarga tarjima qilindi?
3. «Temur tuzuklari» necha qismdan iborat?
4. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi qanday edi?
5. Davlatni boshqarishda qanday qoidalar amal qilingan?
6. Harbiy sohada qanday islohotlar o`tkazilgan?
7. Temur tuzuklarida vazirlarning davlat boshqaruvidagi o`rni qanday?
8. Temur tuzuklarida dehqonlarga qanday engilliklar byer ilgan?
9. Amir Temur shaxsiy hayotida qanday tamoyillarga tayangan?
10. «Temur tuzuklari»ning hozirgi zamondagi ahamiyati nimada?

Mavzu uchun test vazifalari

1. **Quyidagi qaysi to`plamlarda qonun-qoidalar ifodalanmagan?**
A. Xammuroppi qonunlari.
B. Avesto.
V. Temur tuzuklari.
G. Zafarnoma.
D. Yaso qonunlari.
2. **Temur tuzuklari necha qismdan iborat va qanday ifodalanadi?**
A. Ikki qismdan: Soxibqironning hayoti va siyosiy faoliyati.
Temurning vorislariga qarata aytgan vasiyatlari.
B. Bir qismdan: Harbiy qo`shin tuzilmasi.
V. Bir qismdan: Vazirliklar vazifasi.
G. Ikki qismdan: Harbiy qo`shin tuzilmasi va vazirliklar vazifalari.
3. **«Tuzuk» so`zining lug`aviy ma`nosi qanday?**

- A. Qat'iy qonunlar.
- B. Konstitutsiya.
- V. Tartib, intizom.
- G. Qonunlar to'plami.
- D. To'g'ri javob yo'q.

4. Quyidagi qaysi shaxarda YUNESKO tashabbusi bilan Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalari bo'lib o'tdi?

- A. Londonda.
- B. Istambulda.
- V. Jenevada.
- G. Parijda.
- D. Byer linda.

5. Amir Temur shahsiy hayotida va tuzuklarida qanday siyosatga tayangan?

- A. Diyonat, adolat va qattiqqo'llik.
- B. Adolat va qilich.
- V. Harbiy yurishlarga.
- G. Qattiqqo'llik.
- D. Tashqi siyosat.

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK
XALQINING
FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN
HISSASI**

REJA:

1. O'zbekistonning o'z imkoniyatlarini urush ehtiyojlariga safarbar etishi.
2. Urush yillarida O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi.
3. Fan va madaniyat.
4. O'zbekiston jangchilarining jang maydonlaridagi jasoratlari.

Insoniyat juda ko'p urushlarni boshidan kechirgan bo'lib, bular ichida eng dahshatlisi, 50 milliondan ortiq kishining yostig'ini

quritgan, XX asr fojiasi bo'lmish ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939 yil sentyabr - 1945 yil sentyabr) davom etgan bu urush yer sharining 80% aholisi joylashgan hududni, 61 ta mamlakatni o'z ichiga qamrab olgan.

1939 yil 1 sentyabrda fashistlar Gyer maniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. 1941 yil 22 iyun Gyer maniya hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, Sovet Ittifoqiga hujum boshladi. Bu davlat fuqarolari bo'lgan xalqlar uchun og'ir sinovlardan iborat urush boshlandi. O'sha kuni mamlakatda harbiy xolat joriy etilganligi haqida farmon e'lon qilindi. 23 iyunda Toshkentda ko'p ming kishilik miting bo'lib o'tdi.

Urush butun mamlakat xo'jaligi, uning hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. 1941 yil 30 iyunda Davlat mudofaa Qo'mitasi (DMK)ning tuzilishi bilan mamlakatdagi butun siyosiy, harbiy va xo'jalik hokimiyati uning qo'lga o'tdi. Ushbu qo'mitaning raisi I.V.Stalin 19 iyuldan SSSR mudofaa xalq komissari, 8 avgustda SSSR qurolli kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni lavozimini egalladi. U ayni paytda SSSR XKS raisi va VKP (b) MK bosh kotibi bo'lgan. Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan maxsus qarorlar ko'rsatmalarda mamlakatning katta xavf ostida qolganligi, uni ximoya qilish uchun zudlik bilan barcha iqtisodiy-ma'naviy kuchlarni mudofaa manfaatlariga bo'ysindirish, xalq xo'jaligini to'liq harbiy izga solish lozimligi qayd etildi. Uzoq davom etgan urush qiyinchiliklari O'zbekiston mehnatkashlarini ham og'ir ahvolga soldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida respublikaga rahbarlik qilgan O'zbekiston Kompartiyasi MKning 1-kotibi Usmon YUsupov (1937-1950 yy.) o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilishda bosh-qosh bo'ldi.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941 yil iyundan 1942 yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo'mondonlik qarorgohi rezyer viga 86 dviziya va brigada jo'natildi.

Urush yillarida bir yarim milliondan ortiq o'zbekistonlik fuqaro fashizmga qarshi janglarda qatnashdi. 1940 yilda respublika aholisi 6,5 million kishidan iborat edi.

Umumiy axvolning keskin yomonlashuvi oziq-ovqat borasida qiyinchilik tug'dirdi. Shaharlarda oziq-ovqat kartochkalari joriy qilindi. Urush yillarida aholining yangi ijtimoiy guruhlari - harbiy xizmatchilar

oilalari, ko'chib kelgan kishilar, urush nogironlari, etim bolalar paydo bo'ldi. Urush yillarida respublikaga bir millondan ortiq kishi, shu jumladan 200 ming etim bola evakuasiya qilindi. O'zbekiston ularga boshpana byer di.

O'zbeistonliklar ko'chirib keltirilgan bolalarga mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatdilar. 15 nafar etim bolalarni farzandlikka olgan SHomahmudovlar oilasining oliyjanoblighi hammamizga ma'lum. Urush nogironi kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 13 bolani o'z panohiga oldi, Samarqandlik kolxozchi Fotima Qosimova 10 bolani qabul qildi. Urush yillarida 4,5 ming nafardan ziyodroq bolalar o'zbekistonlik oilalar tomonidan qabul qilinib olindi. Ko'chirib keltirilgan bolalarning asosiy qismi bolalar uylariga joylashtirildi. Urush yillarida bunday uylarning soni ikki barobardan ziyod ko'paydi.

1941 yil oxirigacha 300 ga yaqin korxona harbiy izga solindi, jangovor texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurildi. SHulardan 100 tasi urush bo'layotgan xududlardan ko'chirib keltirildi va qayta qurildi. Bundan tashqari yana juda ko'plab ishlab chiqarish korxonalari, maorif va madaniyat muassasalari O'zbekistonga evakuasiya qilindi. 1941 yil 1 oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi.

Iqtisodiyotni jadal harbiy izga solish eng muhim vazifa edi. Bunda front orqasi mehnatkashlarining xizmatini aloxida ta'kidlash lozim. 1941 yil 26 iyundan boshlab ishchi va xizmatchilar uchun ish vaqtidan tashqari majburiy ortiqcha ishlar joriy qilindi, haftasiga mavjud besh kunlik o'rniga olti kunlik, bir kunda 11 soatlik ish kuni joriy qilindi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho'zilardi. Bu ishchi va xizmatchilar sonini oshirmasdan, ishlab chiqarish quvvatini ko'tarish imkonini byer di. Biroq ishchi kuchi baribir etishmasdi. O'zboshimchalik bilan korxonadan ketib qolganlarga 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi belgilab qo'yildi.

Xullas, urush yillarida O'zbekistonning butun moddiy va ma'naviy kuchlari g'alaba uchun safarbar etildi, hayot harbiy izga tushdi.

Urushning dastlabki vaqtlaridan iqtisodiy vaziyat keskin og'irlashdi. Ittifoq respublikadagi ko'pgina sanoat va qishloq xo'jalik rayonlarini bosib olganligi xalq xo'jaligini og'ir ahvolga solib qo'ydi. 1941 yil oxiri va 1942 yilgi Markaziy hukumatning harbiy xo'jalik

rejasi qabul qilindi. Bunda SHarqning ahamiyati keskin ortganligi qayd qilindi va shu yer da nihoyatda qisqa muddatda sanoat qurilishini avj oldirish, harbiy mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish, frontga umumxalq yordamini uyushtirish ko'zda tutildi.

1941 yil sentyabr-dekabr oylarida respublika hukumati xalq xo'jaligini harbiy izga solish, qaysi korxona qachon ishga tushirilishi to'g'risida, ichki resuslarni to'la safarbar etish to'g'risida aniq vazifalarni belgilab byer di. Kadrlar, sanoat xom ashyosi, yoqilg'i, stanoklar, uskunalar keskin etishmasligiga qaramay, 1941 yil dekabriga kelib Toshkentdagi 63 ta, respublika hududidagi 230 ta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlari ishlab chiqara boshladilar. Ko'chirib kelingan zavodlar ham o'z quvvatini oshirib bordilar.

Elektr enyer giyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi. Ayniqsa, O'zbekistonning eng yirik gidrostansiyasi bo'lib qolgan Farxod GES kurilishi umumxalq qurilishga aylantirilib, 10 oy ichida Sirdaryo to'silib, GES ishga tushirildi. Elektr enyer giyasi 1940 yilga qaraganda 1943 yil 3,5 barobar oshdi, 1945 yilda esa 1187 ml.kilovat soatga ko'paydi. YAngi ko'mir va neft konlari ochildi, eskilaridan ko'proq foydalaniladigan bo'lindi (Angren, SHargun, Qizilqiya konlari va boshqalar). Bekobodda metallurgiya zavodi barpo etildi. Olmaliq mis koni ishga tushirildi.

Urush yillarida O'zbekistonda industriyaning barcha sohalariga taalluqli bo'lgan 280 ta yangi sanoat korxonasi qurildi. Respublikaning sanoat quvvati 1945 yili 1940 yildagiga nisbatan 2 marta, neft ishlab chiqarish 4 marta, metallni qayta ishlash 4,5 marta, mashinasozlik 13,4 marta, ko'mir ishlab chiqarish 30 marta oshdi, kimyo sanoati ishlab chiqaradigan yalpi mahsulotlar 5 barobar ko'paydi. SHular qatorida engil va oziq-ovqat koopyer ativ sanoatining ham ishlab chiqarish ko'lami ancha kengaydi.

Temir yo'l ham harbiy xizmatga o'tkazildi. Toshkent temir yo'li ko'chirib kelinayotgan korxonalarning asbob-uskunolari G'arbdan SHarqqa etkazib byer iladigan asosiy yo'llaridan biri bo'lib qoldi, SHarqdan G'arbgaga esa qurol-yarog'lar yuborilardi.

Urush davri talablari pochta va telegraf ishini ham qiyinlashtirib qo'ydi. Barcha aloqa korxonalarida ish vaqti tig'izlashtirilib, ish hajmi oshirildi, pochta korxonalarining soni, telegraf va telefon tarmoqlari uzunligi ortdi.

Urush boshlanishi bilan respublika qishloq xo'jaligi oldida ham front va front ortini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlash vazifasi turardi. Buning uchun xalq xo'jaligining barcha soxalari kabi, qishloq xo'jaligini ham harbiy izga solish, texnik ekinlar, don, poliz va sabzavot ekinlarini ko'paytirish, chorvachilik mahsulotlarini oshirish zarur edi. Vaziyatning murakkabligi shundan iborat ediki:

1. Respublika qishloq xo'jaligi paxta etishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismi Ittifoq fondidan keltirilar edi. Urush boshlangandan keyin oziq-ovqat keltirish to'xtadi, aholini boqish uchun ichki imkoniyatlarni topish zarur edi.

2. Deyarli bir millionga yaqin kishi, 200 ming etimlar O'zbekistonda boshpana topdi. Evakuasiya qilingan aholi hisobiga Shaharlar aholisining ko'payishi oziq - ovqat bo'lgan talabni yanada oshirdi.

3. Dehqonlar frontga va harbiy sanoatda ishlashga safarbar etilgach, dehqonlarning mashaqqatli mehnati keksalar, ayollar, o'smirlar zimmasiga tushgan edi.

4. MTS va sovxozlarga G'arbdan yangi traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va ularga ehtiyoj qismlar keltirish to'xtab qoldi.

Bu qiyinchiliklarga qaramasdan respublikada dehqonchilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand lavlagi, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari etishtirishni keskin ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Birinchi navbatda ekin maydonlarini oshirish yuksak sur'atlar bilan olib borildi. SHimoliy Toshkent kanalini barpo etish 15 ming gektar yyer ni sug'orish imkonini berdi. O'zbekiston mehnatkashlarining kuchlari bilan Yuqori CHirchiq,SHimoliy Farg'ona, So'x-Shoximardon, Uchqo'rg'on kanallari, Kosonsoy suv ombori bunyod etildi. 1942-1943 yillar mobaynida sug'oriladigan yer lar 546 ming gektarga kengaydi.

SHunday qilib, urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jalik axli eng murakkab va og'ir sharoitda mehnat qilib, 4 million tonnadan ziyod paxta xom ashyosi, 82 mln. pud don, 55 ming tonna pilla, 11 mln. tonna sholi, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsulotlar etkazib byer dilar. Bu fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shilgan munosib hissa edi.

Front va front orqasini zarur xom ashyo va oziq-ovqat bilan ta'minlash hamda jangchilarni g'alaba sari ruhlantirishda O'zbekiston

xalqi, xususan, fan va madaniyat arboblarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi. Ilmiy muassasalarda tadqiqotlar yo'nalishi ham urush davri manfaatlariga moslashtirildi. Geolog, enyer getik, kimyogar olimlarning ilmiy ishlari samarali bo'ldi. Bu davrda yangi konlar o'zlashtirildi. O'rta Osiyo univyer sitetining kimyo fakulteti negizida farmasevtika zavodi ishga tushirildi. Evakuasiya qilinganlar hisobiga ko'paygan respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha hamma imkoniyatlardan foydalanildi.

O'zbekiston SSRning g'arbiy mintaqalaridan Ittifoq akademiyasi institutlari va ilm-fan arboblari evakuasiya qilindi. 1941 yilning kuzida SSSR Fanlari akademiyasi SHarqshunoslik, Tarix, Jahon adabiyoti, Moddiy madaniyat tarixi va boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari, ko'plab olimlar ko'chib keldilar. SSSR Fanlar akademiyasi O'zbekiston filialining negizida 1943 yil 4 noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tashkil topdi. Akademiyaning birinchi prezidenti etib T.N.Qori-Niyozov saylandi. Fanlar akademiyasining tashkil etilishi o'zbek xalqi hayotida muhim xodisa bo'ldi. Bu akademiya O'zbekiston ilmiy tafakkurining markazi bo'lib qoldi. Bu davrda taniqli matematik olimlar T.N.Qori-Niyozov, T.A.Sarimsoqov, geolog olimlar X.N.Abdullaev, A.S.Uklonskiy, faylasuf I.M.Mo'minov, kimyogar olimlar O.S.Sodiqov, S.YU.YUnusov, enyer getik A.N.Askogenskiy va boshqalar samarali ilmiy ishlarni olib borgan. Urush tufayli Moskva, Leningrad, Kiev, Minsk va boshqa Shaharlardan ko'chirib keltirilgan olimlar, shoirlar, yozuvchilar va sa'natkorlar O'zbekiston olimlari va ijodkorlari bilan mustahkam aloqada ish olib bordilar.

Insonparvarlik g'oyalarini kengroq targ'ib qilish maqsadida o'zbek xalqi madaniy myer osidan foydalana boshlandi. Tarixiy mavzuda badiiy asarlar («Maxmud Tarobiy», «Muqanna», «Jaloliddin Mangubyer di», «Tohir Malik» va boshqalar) yaratildi. Hamid Olimjon, Oybek, G'afur G'ulom, Komil YAshin, Abddulla Qahhor, Uyg'un, Sulton Jo'ra, Oydin kabi shoir va adiblar urush mavzuiga bag'ishlangan asarlar yaratdi.

Respublika teatr san'ati, kinomatografiya, xaykaltoroshlik va rassomlikda vatanparvarlik mavzuidagi asarlar yaratildi. O'zbekistonda shu yillarda 35 ta mahalliy, 16 ta ko'chirib keltirilgan teatr ish olib bordi. Urush yillarida o'zbek san'atkorlari 30 ta konsyert brigadalariga bo'linib, frontdagi jangchilarga 35 ming gospitallarda esa 26 ming konsyert namoyish etdilar. Ayniqsa Tamaraxonim, Halima Nosirova,

Mukarrama Turg'unboeva, Sora Eshonto'raeva, Abror Hidoyatov kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsyer t va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. A.Abdullaev, U.Ahmedov, O'Tojiboev kabi rassomlar urush lavhalarini, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

Qisqa metrajli filmlar va 10 ta badiiy filmlar yaratildi. Y.Azimov, K.Yormatov, N.G'aniev, S.Muhamedov kabilar o'zbek kinomatografini rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan «Nasriddin Buxoroda», «Tohir va Zuhra» kabi filmlar «O'zbekfilm»ning oltin fondiga kiritildi.

1941-1945-yillardagi urushning barcha jabhalarida o'zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik ko'rsatdilar. Ikkinchi jahon urushida fashistlar va Yaponiya militarizmi kuchlariga qarshi kurashdagi jasorati, mardlik va qahramonligi uchun 120 ming kishi orden va medallarga, 280 kishi esa Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, ulardan 75 tasi o'zbek jangchilari edi, 82 o'zbekistonlik askar har uchala darajali «SHuxrat» ordenini olishga muvassar bo'lgan.

Jang harakatlari davrida harbiy asirlikda bo'lganlar, xususan, Turkiston legionida qatnashganlarning taqdiri ham nihoyatda og'ir kechdi. Urush tugagach, ular hamma joyda ta'qib etildi, ko'pchiligi turli qiynoqlarga duchor qilindi. Bu qiynoqlardan omon qolgan oz sonli kishilargina keyinchalik ozodlikka chiqarildi.

1999-yil mayda Toshkentda Xotira va qadrlash maydoni barpo etilib, unda «Motamsaro ona» haykali o'rnatildi. Xiyobonning shimoliy va janubiy tomonida qad ko'targan ayvonlar tokchalarida ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik barcha jangchilarning ism-shariflari bitilgan metall taxtalar qo'yilgan.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir 3-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. -T., 2006.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. II qism. -T.: SHarq, 2000.
4. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). -T.: SHarq, 2000.
5. O'zbekiston tarixi. Qisqacha ma'lumotnoma. -T.: SHarq, 2000.

O'zingizni sinab ko'ring

1. Urushning boshlanishida qanday vazifalar belgilab olindi?
2. Sanoatning qaysi tarmoqlariga e'tibor kuchaytirildi?
3. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda qanday muammolar bor edi?
4. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qachon tashkil topgan?
5. Urush yillarida ijod etgan adiblardan kimlarni bilasiz?
6. O'zbekiston frontga qanday harbiy kuchlar jo'natdi?
7. Urush bo'layotgan hududlardan O'zbekistonga qanday korxonalar ko'chirib keltirildi?
8. Urush yillarida O'zbekiston frontga qaysi qishloq xo'jalik mahsulotlarini etkazib berdi?
9. O'zbekistonlik qahramon jangchilardan qaysilarini bilasiz?
10. O'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasining ahamiyati qanday?

Mavzu uchun test vazifalari

1. **Urushning dastlabki kunlarida O'zbekiston frontga qanday yordam berdi?**
 - A. Frontga harbiy safarbarlik asosida dviziya va brigadalar jo'natdi.
 - B. Sanoat korxonalari harbiy izga tushirildi.
 - V. Yetim bolalar O'zbekistonga evakuasiya qilindi.
 - G. Qishloq xo'jalik mahsulotlari etkazib berdi.
 - D. Hammasi to'g'ri.
2. **Xalq xo'jaligi xodimlari oldida qanday muammolar bor edi?**
 - A. Urush boshlangandan keyin oziq-ovqat keltirish to'xtadi, aholini boqish uchun ichki imkoniyatlarni topish zarur edi.
 - B. Evakuatsiya qilingan aholi hisobiga Shaharlar aholisining ko'payishi oziq-ovqatga bo'lgan talabni yanada oshirdi.
 - V. Dehqonlar frontga va harbiy sanoatda ishlashga safarbar etilgan, dehqonchilikning og'ir mehnati keksalar, o'smirlar zimmasiga tushgan edi.

- G. MTS va sovxozlarga G'arbdan yangi traktor, qishloq xo'jalik mashinalari va ularga ehtiyot qismlar keltirish to'xtab qolgan. Harbiy safarbarlikni tashkil etish.
- D. Hamma javob to'g'ri.

3. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi qachon tashkil etildi va uning birinchi Prezidenti kim?

- A. 1926 yil, Habib Abdullaev.
B. 1940 yil, Botir Boboev.
V. 1943 yil, Qori Niyozov.
G. 1944 yil, Munavvar Qori Abdurashidxonov.
D. 1945 yil, Qori Niyozov.

4. Urush maydonlarida qahramonlik ko'rsatgan vatandoshlarimizni toping.

- A. M.Topiboldiev.
B. S.Rahimov.
V. F.Xo'jaev.
G. B.Boboev, T.Rizqulov.
D. A, B,G.

5. Ulug' Vatan urushi qahramonlari sharafiga qanday yodgorliklar o'rnatilgan?

- A. SHaxidlar xiyoboni.
B. Xotira xiyoboni, Birodarlar qabristoni.
V. A.Temur muzeyi, Xotira xiyoboni.
G. O'zbekiston tarixi muzeyi.
D. Birodarlar qabristoni.

6. Urush yillarida O'zbekistonga nechta sanoat korxonalari ko'chirib keltirildi?

- A. 300 ta.
B. 200 ta.
V. 100 ta.
G. 50 ta.
D. 250 ta.

O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO YETILISHI

REJA:

1. Totalitar tuzumdan huquqiy davlatga o'tish.
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi.
3. Ko'p partiyaviylik tizimi. Milliy siyosat.

Hozirgi kunda jahonda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga bir nazar tashlasak, jamiki davlatlarning oldida mazkur davlatning jo'g'rofiy, siyosiy joylashuvi, yaqin chegaradosh davlatlardagi iqtisodiy, siyosiy holat, iqtisodiy imkoniyatlari, ma'naviy-aqliy imkoniyatlari, milliy mentaliteti, erkinligiyu ozodligi, xalqning onglik darajasi va rahbariga, ya'ni yurtboshiga bog'liq omillar kabi masalalar ko'ndalang bo'lib turibdi.

Endi nazarimizni sobiq ittifoq tarkibidagi hozirgi kunda mustaqillikka erishgan davlatlarning taraqqiyotiga qarataylik. Har qaysisining rivojlanish darajasi, rivojlanish yo'li o'zgacha – bu tabiiy hol. Lekin bu rivojlanishning natijasi-chi? Masalaning mohiyati ham xuddi mana shundadir.

Ma'lumki, sobiq ittifoq tarkibidagi barcha davlatlarga bir xil myer os qolgan - totalitar tuzum. Totalitar tuzumdan huquqiy davlatga o'tish bir zumda amalga oshadigan ish emas, biz o'ylagandan ancha murakkabroq, insondan ancha aql talab etadigan jarayondir, ya'ni:

1. Juda murakkab, ko'p qirrali, ayni paytda izchillikni taqozo etadigan ijtimoiy hodisa.
2. Eng avvalo, millat ravnaqini ta'minlash, hurfiylik, sog'lom tushunchalar, yuksak siyosiy madaniyat taqozo etadigan jarayon.
3. Eng muhimi, xalq demokratiyani chuqur tushinishi, uning butun mazmun - mohiyatini anglashi zarur.

YUqoridagi eng muhim vazifalarni jamlab xulosa chiqaradigan bo'lsak, O'zbekistonning bu boradagi siyosati - «yangisini qurmay, eskisini buzmaslik», islohotlarni «bosqichma - bosqich» amalga oshirish shiori ostida olib borilmoqda.

Prezident I.A.Karimov ushbu masalaga mamlakat va xalq manfaatidan kelib chiqib yondashmoqda. Bu yo'lda u ma'lum darajada qattiqqo'llik va talabchanlik ham qilmoqda. Buni «Komsomolskaya pravda» gazetasi muxbiri savollariga byer gan javoblarida ochiq-oydin

aytdi: «Muholiflarim meni diktator qilib ko'rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman: ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonlari bordir. Ammo men buni faqat bir narsa bilan izohlayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa bir tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida, har holda kuchli ijroiya hokimiyati zarur. Qon to'kilishiga va qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolar totuvligi, tinchligini va barqarorlikni saqlash uchun shunday bo'lishi zarur. Bu yo'lda men jonimni fido qilishga tayyorman».

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. Milliy davlatchilik rivojlanishining ming yillardagi an'analari mustamlakachilik yillarida batamom inkor etilgan edi. O'zbekiston rahbariyati tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning milliy - tarixiy rivojlanishiga, uning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi.

Bu jarayonda ikki vazifa turibdi:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;
2. Yangi davlatchilikning huquqiy-siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari.

Huquqiy davlatga o'tishning ilk bosqichi davlat qurilishining kafolati - O'zbekiston Konstitutsiyasidir.

O'zbekiston Konstitutsiyasida davlat hokimiyatining taqsimlanishida jahondagi ilg'or boshqaruv tajribalari o'rganib chiqildi. Hamda eng asosiysi - milliy davlatchiligimiz an'analarga sodiq qolindi.

Jahondagi turli davlatlarda davlat boshqaruvi shakli turlicha. Masalan, AQSHda boshqaruvning prezidentlik - respublika shakli. Buyuk Britaniyada parlamentar- monarxiya, Gyer maniyada parlamentar - respublika, Fransiyada dualistik - respublika shakllari mavjud.

Nega bunday?

Sababi: milliy davlatchilik asoslari, milliy madaniyat, tarixiy qadriyatlar har bir davlat demokratiyasiga, davlat boshqaruviga zamin bo'lishi kyer ak. Misol uchun, Buyuk Britaniyada monarxiya boshqaruv

tizimi saqlab qolingan, hozirgi davrda Qirolicha davlat rahbari, lordlar palatasi milliy davlatchilik an'analardan myer os tarzda saqlab qolingan, yagona sistemalashtirilgan konstitusiya yo'q. AQSHda atiga 6 ta moddadan iborat bo'lgan 1787 yilda qabul qilingan Konstitusiya milliy davlatchilik asoslariga sadoqat ramzi sifatida saqlanib qolingan. 26 ta qo'shimcha va o'zgartishlar bilan hozirgi kunda ham amal qilib kelmoqda. Boshqa demokratik davlatlar uchun xos bo'lgan maxsus konstitution organi yo'q. Davlat boshqaruvining Prezidentlik Respublikasi shaklidagi davlatlar ichida faqat AQSHdagina Prezident bevosita saylovchilar tomonidan saylab qo'yilmasdan, balki saylovchilarning maxsus kollegiyasi orqali saylanadi. YAponiyada impyer atorga xalqning sadoqati juda kuchli. Impyer ator hokimiyati daxlsiz va muqaddas, deb tan olingan.

O'zbekistonda ham davlat boshqaruvi shakli, hokimiyat vakolatlarini taqsimlashda xuddi mana shunday milliy an'analarga katta e'tibor byer ildi.

Endi O'zbekistonda davlat boshqaruvi masalasiga to'xtalsak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi», -deyiladi. Konstitusiya mazmunidan ko'rinib turibdiki, davlat hokimiyatida vakolatlar turli davlat organlariga, chunonchi, qonunchilik vakolatlari Oliy Majlisga, ijro vakolatlari Prezident hamda Vazirlar Mahkamasiga, sudlov vakolatlari esa Sud organlariga taqsimlanib byer ilgan. Davlat boshqaruvida yana islohotlar o'tkazilib, Sud sistemasi yanada isloh qilinmoqda.

Davlatni boshqarishning Prezidentlik shakli mamlakat boshqaruvi tizimini isloh qilishning boshlanishi bo'ldi. Prezident davlat hokimiyatining boshlig'i bo'lib, bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining raisi vazifasini bajaradigan bo'ldi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat, ho'jalik jamiyatning barcha sohalaridan tortib, intizom o'rnatish, ijroiya hokimiyatini butun choralar bilan mustahkamlash ehtiyoji shuni talab qildi. Demak, Prezident suvyer en Respublika boshlig'i va ayni mahalda Respublikada ijroiya hokimiyati rahbari sifatida faoliyat yurgizadi. Bu, ayrim g'alamislarning fikricha, avtoritar hokimiyatning o'rnatilishi emas, aksincha, hozirgi paytda kuchli ijroiya hokimiyati bo'lishi kyer akligidandir. Aks holda, jilov qo'ldan chiqib ketishi va mamlakat inqirozga yuz tutishi hech gap emas.

Masalan, Koreya, Turkiya va boshqa mamlakatlarni olsak. Ular iqtisodiy islohotlar yoki o'tish davrida juda kuchli ijroiya hokimiyatga asoslangan edi.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va Xalq Deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashkil etadi. Bu organlarga yildan-yilga juda katta imkoniyatlar, imtiyozlar berilmoqda. Fuqarolar yig'ini, oqsoqollar kengashi kabi o'z-o'zini boshqarish organlari qadimdan o'zbek milliy davlatchiligining asoslari hisoblanadi.

Huquqiy davlat qurishda har tomonlama kamol topgan kadrlar muhim o'rin tutadi.

Fuqarolik jamiyati, bu insonning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ta'minlaydigan, qonun ustuvor bo'lgan ijtimoiy jamiyatdir. Buning ma'nosi - boshqaruvning turli xil vazifalari bevosita xalqqa topshiriladi, o'zini-o'zi boshqarish organlari rivojlanib boradi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab «Kuchli davlatdan -kuchli fuqarolar jamiyati sari» siyosiy shiori ostida rivojlanib bormoqda. Fuqarolar jamiyati-bu jamiyatning bir qismi, hokimiyatning davlat organlari va boshqaruvidan tashqari qismi rivojlanib bormoqda, deganidir.

Fuqarolik jamiyatining etuklik darajasi fuqarolarning siyosiy etukligi, ularning siyosiy va jamoat tashkilotlariga birlashish darajasi, ularning aktiv faoliyati bilan belgilanadi.

Mamlakatimizning fuqarolik jamiyati qurilishi yo'lidan borayotganligi hozirgi davrda vujudga kelgan siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlarining tashkil topganligi va ularning faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

«Fuqarolik jamiyati, -deb yozadi Islom Karimov, - ijtimoiy makon. Bu makonda Qonun ustivor bo'lib, u insonning o'zini-o'zi kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi».

Keyingi paytlarda Oliy Majlis tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning aksariyati mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Misol, Sud sistemasini isloh

qilish to'g'risidagi qonun loyihasi, Saylov tizimi va hokazolarni olib ko'rishimiz mumkin.

Xullas, hokimiyat vakolatlarini jamoat va nodavlat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini kengaytirish fuqarolik jamiyatining ilk qadamlari hisoblanadi.

Ayni shu masalaga Prezidentimiz Oliy Majlisning II chaqiriq, IX sessiyasida ham alohida e'tibor qaratib, shunday dedi: «Aynan mustaqillik davrida har tomonlama o'zini oqlagan, tobora hayotimizda ahamiyati kuchayib borayotgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari-mahalla instituti, turli jamoat birlashmalari hamda tashkilotlarini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi bizning doimiy e'tiborimizda turishi lozim».

Demokratiyaning asosiy xususiyatlaridan biri ko'p partiyaviylikdir. Biroq davlat, jamiyatning rivojini mavjud partiyalarning soni bilan belgilash noto'g'ri. Ko'p partiyaviylik tizimining muvaffaqiyati siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda partiyalarning ishtiroki bilan belgilanadi.

1996 yil dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida» qonun qabul qilindi.

1991 yil 1 noyabrda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining (XDP) ta'sis kengashi bo'lib o'tdi. Unda partiya dasturi, nizomi qabul qilindi, partiyaning rahbar organlari saylandi.

1992 yilning 24 mayida «Vatan taraqqiyoti» partiyasining Toshkentda ta'sis qurultoyi o'tkazilib, unda partiya dasturi va nizomi qabul qilindi.

1995 yil 18 fevralda «Adolat» sosial-demokratik partiyasining ta'sis qurultoyi bo'lib, unda dastur va nizom tasdiqlandi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi 1995 yilning 3 iyunidagi ta'sis qurultoyida tashkil etilgan bo'lib, partiyaning dastur va nizomi qabul qilingan.

2000 -yil 14 aprelda «Vatan taraqqiyoti» va «Fidokorlar» partiyalari birlashib, «Fidokorlar milliy demokratik partiyasi» nomini oldi.

2003 yil 15 noyabrda tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston libyer al-demokratik partiyasi qurultoyi bo'lib o'tdi. Siyosiy harakatning dastur va nizomi tasdiqlandi. Siyosiy kengash ijroiya

qo'mitasining raisi etib Q.Toshmatov saylandi. Bu yangi partiyaning nashri «XXI asr» gazetasidir.

SHuningdek, 1995 yildan «Xalq birligi» harakati mavjud.

Bu partiya va harakatlarining har biri jamiyatda ma'lum qatlamlarning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini ifodalab, parlamentda o'z o'rnini va ovozlari egalar.

Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200ga yaqin Kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar kabi ijtimoiy uyushmalar ham mavjud. Bular orasidan eng ommaviysi - kasaba uyushma tarkibida 7,5 mln. a'zosi bor. O'zbekiston hayotida yoshlarning roli beqiyosdir. 1991 yili O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar Farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg'or oliygohlarda bilim olishlarini ta'minlash va tashkil etish uchun «Umid» jamg'armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozir O'zbekistonda 130dan ortiq millat vakillari yashaydilar. Millatlarning huquqlarining amalda tengligini ta'minlash maqsadida 80dan ortiq milliy markazlar tashkil etilgan. Bularning faoliyatini 1993 yili tashkil etilgan Respublika Baynalminal madaniy markazi boshqarib boradi.

Demak, O'zbekistonda davlatimiz kunma-kun, bosqichma-bosqich o'z funksiyalarini ana shunday jamoat birlashmalariga o'tkazib byer moqda va fuqarolik jamiyati zaminini shakllantirib bormoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Respublika parlamenti tomonidan qabul qilingan «Jamoat tashkilotlari to'g'risida», «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida», «Kasaba uyushmalari, ular faoliyatini huquq va kafolatlari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992, 1999.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1992.

3. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. -T.: O'zbekiston, 1993.
4. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlool davri. -T.: O'qituvchi, 2003.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: SHarq, 2000.
6. SHarifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. -T.: SHarq, 2003.

O'zingizni sinab ko'ring

1. O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng istiqlool va o'ziga xos taraqqiyot yo'lini qanday belgiladi?
2. «Umid» jamg'armasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Hozirgi kunda O'zbekistondagi davlat boshqaruvining shaklini aniqlab byer ing.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida qayd etilgan hokimiyat turlarini aniqlang.
5. Fuqarolik jamiyati deganda qanday jamiyatni tushunasiz?
6. O'zbekistonda mavjud siyosiy partiyalarni sanab byer ing.

Mavzu uchun test vazifalari

1. **Mustaqil O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'z-o'zini boshqarishni ifodalovchi to'g'ri javobni aniqlang.**
 - A. Respublika tumanlari, Shaharlari va viloyatlarida hokimlar boshqaruvi tasdiqlanganligi.
 - B. Vazirlar Mahkamasining tashkil etilishi.
 - V. O'zbekiston BMTga a'zo bo'lishi.
 - G. Xalq noiblari saylovidagi xaqqoniylik.
 - D. O'zbekiston mustaqilligini dunyoning etakchi davlatlar tan olganligi.

2. **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning deputat etib saylanish huquqiga ega fuqarolar kamida necha yoshda bo'lishi kerak?**
A. 35 yoshda.
B. 30 yoshda.
V. 25 yoshda
G. 21 yoshda.
D. 18 yoshda.
3. **«Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun qabul qilingan to'g'ri javobni ko'rsating.**
A. 1995 yil 23 fevralda Oliy Majlisning birinchi sessiyasida qabul qilindi.
B. 1996 yil 25 martda Oliy Majlis Rayosati tomonidan qabul qilindi.
V. 1996 yil dekabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilindi.
G. 1996 yil 26 dekabrda Oliy Majlisning VII-sessiyasida qabul qilindi.
D. V, G.
4. **O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat tizimini ko'rsating.**
A. Vazirlar Mahkamasi va barcha vazirliklar.
B. Viloyat, tuman, Shaharcha, Shaharlar tarkibidagi tuman hokimiyatlari.
V. Shahar, qishloq, posyolka doirasidagi hokimiyat muassasalari.
G. B, V.
D. barcha javoblar to'g'ri.
5. **O'zbekiston saylov tizimining muhim tamoyillaridan biri bu...**
A. saylovlarning ko'p partiyaviylik asosida o'tkazilishi.
B. saylovlarning bir partiyaviylik asosida o'tkazilishi.
V. saylovlarning ikki partiyaviylik asosida o'tishi.
G. saylovlarda ochiq ovoz berishning ta'minlanishi.

D. saylovlarda partiyalar ishtirokining ta'min etilmasligi.

6. **O'zbekistonda sud islohotining II bosqichi qachon boshlangan?**
A. 1994 yildan.
B. 1995 yildan.
V. 1996 yildan.
G. 1997 yildan.
D. 1998 yildan.

O'ZBEKISTONNING MILLIY G'OYASI VA MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI

REJA:

1. Milliy istiqlol g'oyasini yaratishning zaruriyati.
2. O'zbekistonning milliy g'oyasi va milliy istiqlol mafkurasi.
3. Milliy g'oya - milliy ma'naviy qadriyatlar.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi ko'p asrlik xalqimiz tarixida eng buyuk tarixiy hodisalardan biri bo'ldi.

Mustaqillik yurtimizda yashayotgan barcha xalqlar uchun eng ulkan tarixiy burilish davri bo'ldi, tabiiyki, bu davr o'ziga xos asosli g'oyalarni ham talab qildi.

Ma'lumki, har qanday millat va xalq, xar qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad - muddaolarini, orzu-intilishlarini ko'zlab xarakat qiladi.

Inson o'zining aql-zakovati, imon-e'tiqodi va ijtimoiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farqlanib, uning ongida doimo qandaydir tushunchalar, fikrlar, qarashlar tahlil qilib boriladi. Har qanday g'oya, odatda, fikr sifatida alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik ko'pchilikka ma'qul bo'lsa, jamiyatning turli qatlamlari orasida tarqaladi, turli elat va millatlar orasida yoyiladi va ularni fikran hamda ruhan yaqinlashtirish va begonallashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan har bir yangi avlod dastlab jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalar yaratadi va targ'ib etadi.

G'oyaga ta'rif byer ish uchun, eng avvalo, uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarni sanab o'tish lozim. G'oyaning eng muhim xususiyati - inson va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan fikriy kuch ekanidadir. G'oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy kuchga ega bo'lgan, ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad va muddao sari etaklaydigan fikrga aytiladi.

Milliy g'oya esa, biron-bir mamlakat xalqi (xalqlari)ning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari birlashtiradigan va safarbar etadigan eng ilg'or, insonparvar fikrlar majmuasidir.

O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq o'z kelajagini belgilashi, unga etishishning o'ziga xos yo'llarini tanlashi hayotiy zaruriyatga aylanadi. SHu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yo'nalishlariga munosib barcha g'oyaviy tamoyillarni ham belgilab oladi.

Tarixiy jihatdan zaruriyat hisoblangan bunday g'oyalar O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglik kabi milliy, ayni paytda, umuminsoniy qadriyatlar sifatida asoslab byer ildi.

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risida yaxlit, izchil ta'limotdir. Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashayotgan har bir millat, ijtimoiy gurux, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. SHu ma'noda, milliy istiqlol g'oyasi 130dan ortiq millat vakillaridan tashkil topgan O'zbekiston xalqining, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan borayotgan jamiyatimizning umumiy g'oyasidir.

Milliy istiqlol g'oyasining muhim tarixiy vazifalari bor:

- birinchidan, milliy istiqlol g'oyasi aholini, avvalo, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarda madadkor bo'lishi zarur.

- ikkinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi, buguni va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy myer osining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib byer adigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kyer ak.

- uchinchidan, milliy istiqlol g'oyasi kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlab ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishga xizmat qiladi.

G'oya tushunchasi mafkura tushunchasi bilan chambarchas bog'liq, aniqrog'i biri ikkinchisini yaratadigan hodisadir. Mafkura, kelib chiqishiga ko'ra, arabcha so'z bo'lib, fikrlarning ko'pligini bildiradi.

Mafkura - muayyan guruh yoki qatlamning, millat yoki davlatning extiyojarini, maqsad va intilishlarini ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatimizda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirib, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida harakatga chorlaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraga shunday ta'rif byer adi: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda, shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq - ravshan belgilab byer ishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman".

Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasini shu jamiyatning fikriy tayanchi bo'lishi, oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim.

Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi. Millat, xalqning hamjihatligi esa, har qanday taraqqiyotning garovidir. Milliy istiqlol mafkurasining yoshlar ongiga singdirilishi uchun maqsad va vazifalarini

chuqur o'rganish bilan bevosita bog'liq, shuning uchun mafkura maqsadlarini bilish eng dolzarb va muammoli masalalardan biridir.

Har qanday mafkura o'z oldiga muayyan maqsadlarni qo'yadi. Bu maqsadlar pirovard natijaga erishishning yo'llari, vosita va usullarini belgilaydi. Mafkuraning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish;
- shu g'oya atrofida uyushtirish;
- g'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturiga ega bo'lish.

Istiqlol mafkurasining vazifalari uning o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadidan kelib chiqadi. Unda bosh maqsadga erishishning vosita va usullari aniqlanadi.

SHu ma'noda, odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish - milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifalaridan biridir. Istiqlol mafkurasida kishilar ongiga singdirilishi bilan Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg'usi shakllanadi. CHunki shaxsiy g'oya va manfaatlar shaxs faolligini kuchaytiruvchi omil bo'lsa, istiqlol mafkurasida o'zida butun bir xalqning hayotiy manfaat va intilishlarini aks ettiradi.

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasining ma'no-mazmunini belgilaydigan asoslardan biri - bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. CHunki tarix - buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar byer ibgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi. Ona zaminimizda bundan bir necha asrlar avval yaratilib, to hana yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, asoriatlalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar byer adi.

Milliy g'oya va milliy ma'naviy qadriyatlar uzviy bog'liqdir. SHu bois, milliy g'oyaning shakllanishida milliy ma'naviy qadriyatlar, xalq falsafasi, dunyoqarashi, badiiy va og'zaki ijodi juda muhim o'rin tutadi. Sababi-ular da xalqning, millatning ruhiyati, tafakkur tarzi, orzu-umidlari aks etgan bo'ladi. Biroq milliy ma'naviy qadriyatlar qotib qolgan narsa bo'lmay, zamonga mos ravishda boyib, mazmunan takomillashib boradi va ijtimoiy ma'naviy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Bunda odamlarning qadriyatlarga munosabatini to'g'ri yo'naltirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ma'naviy qadriyatlarga hurmat, unga bo'lgan munosabatda milliy g'oyaning aks etishi tabiiy haqiqatdir. Faqatgina milliy qadriyatlarni qadr etmagan kishida milliy g'urur tuyg'usi bo'lmaydi.

Milliy g'oya bevosita milliy g'urur, or-nomus, qadr-qimmatini anglash bilan bog'liqdir. Milliy g'urur va or-nomusni baland tutish, qadr-qimmatini kamsitmaslik milliy g'oya me'zonidir. Milliy g'ururni, Vatanni anglash, vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ulari bilan mushtarak bo'lib, milliy qadr-qimmat, g'urur, or-nomusni anglagan xalq, millat, avlodga ega bo'lgan mamlakatning kelajagini kafolatlaydi.

Milliy g'oya O'zbekiston xalqining o'zligini anglashi va milliy-ma'naviy tiklanishi ifodasidir.

Milliy g'oya va o'zlikni anglash bir-biri bilan chambarchas bo'lib, xalqimizning eng umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

Prezident Islom Karimov mamlakat kuch-qudratini xalqning ma'naviy kamolotida ko'radi. SHuning uchun ham u jamiki insoniy fazilatlarini takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Bu, bir tomondan, mustaqillik sharoitida endigina shakllanayotgan davlat siyosatining nechoqlik insonparvarligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, davlat rahbarining siyosiy-ma'daniy salohiyatining benihoya yuksakligini, xalq ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini naqadar chuqur o'rganganligini bildiradi. SHu bilan birga, bu xalq va hokimiyat intilishlarining mushtarakligidan dalolat byer adi. Prezident I.Karimov O'zbekistonning ma'naviy rivojlanish negizlarini belgilab byer ar ekan, vatanparvarlik g'oyasiga alohida urg'u byer adi. Binobarin, Vatanni sevish xalqimizga xos azaliy qadriyat hisoblangan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: SHarq, 1998.
4. Karimov I. A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: O'zbekiston, 1999.

5. Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. -T.: O'zbekiston, 2000.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 2000.

O'zingizni sinab ko'ring

1. Milliylik nima?
2. Milliy istiqlol g'oyasi nimani o'rganadi va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. G'oya va mafkura tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
4. Mafkuraning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
5. Milliy istiqlol g'oyasining ahamiyati nimada?
6. Milliy ma'naviy qadriyatlar nimani anglatadi?

Mavzu uchun test vazifalari

1. **Mafkura qanday asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi?**
 - A. Muayyan g'oyaga ishonitirish, uyushtirish.
 - B. Safarbar etish, ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish.
 - V. G'oyaviy immunitetni shakllantirish.
 - G. Harakat dasturi bo'lishi.
 - D. YUqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri.
2. **Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
 - A. Vatan ravnaqi.
 - B. YUrt tinchligi.
 - V. Xalq farovonligi.
 - G. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish.
 - D. Komil inson.

3. **«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasining nazariy-amaliy yo'nalishlari kim tomonidan asoslab byer ildi?**
 - A. Islom Karimov.
 - B. Xalqimiz.
 - V. Millatimiz.
 - G. Jamiyatimiz.
 - D. YUqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri.
4. **«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasi yaratilishi sabablarini ko'rsating.**
 - A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan.
 - B. O'zbekiston Respublikasi tarixida XX1 asr boshlanishi munosabati bilan.
 - V. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Tyer rorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan.
 - G. Kelajakda buyuk davlat qurish maqsadida xalqni, jamiyatni birlashtiruvchi, odil yo'lga boshlovchi bayroqning kyer akligi natijasida.
 - D. «Sog'lom avlod» davlat dasturini qabul qilish munosabati bilan.
5. **Milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish qaysi sohalarda amalga oshiriladi?**
 - A. Ta'lim va tarbiya.
 - B. Fan va ilmiy muassasalar.
 - V. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar.
 - G. Jismoniy tarbiya va sport.
 - D. YUqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri.

8. O'zbekistonning milliy g'oyasi va milliy istiqlol mafkurasi
(Ziyaeva D.S.) 47

Mundarija

1. Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari
(YUsupova G.V.) 4
2. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi va hozirgi zamon
(YUsupova G.V.) 9
3. Eftaliylar, Turk hoqonligi, arablar bosqini va hukmronligi davrida
O'rta Osiyo (YUsupova G.V.) 16
4. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash (SHirinova F.N.) . . 23
5. Temur tuzuklari va hozirgi zamon (SHirinova F.N.) 28
6. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan
qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi (SHirinova F.N.)
35
7. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati
asoslarining barpo etilishi (Ziyaeva D.S.) 41

O'zbekiston tarixi fanidan mustaqil ish
vazifalari

O'zbekiston tarixi kafedrası
majlisida
muhokama etilgan (2007 yil 8
yanvar 20- majlis
bayonnomasi)
IBF ilmiy-metodik kengashi
tomonidan nashrga tavsiya
etilgan (2007 yil)

Mualliflar: YUsupova G.V., SHirinova F.N., Ziyaeva
D.S.

Taqrizchi: Arifxanov B.A.

Mas`ul muharrir: t.f.n. Salamullaev X.S.

Muharrir: Parpieva Q.